



O‘ZBEKISTON VA FRANSIYA O‘RTASIDA STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI O‘RNATILISHI O‘ZARO HAMKORLIKNI YANADA MUSTAHKAMLAYDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat tashrifi bilan Fransiya Respublikasida bo‘lib turibdi.



12-mart kuni Parijdagi Faxriylar uyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo‘ldi.

Mamlakatimiz yetakchisini Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron kutib oldi.

Maydonda oliy martabali mehmon sharafiga Fransiya Respublika gvardiyasi, quruqlik qo‘shinlari, harbiy-dengiz va harbiy-havo kuchlari xizmatchilaridan iborat faxriy qorovul saf tortdi.

Harbiy orkestr ijrosida ikki mamlakat madhiyalari yangradi. Gvardiyachilar davlatimiz rahbari oldidan tantanali yurib o‘tdi. Prezidentlar faxriy qorovul safi oldidan o‘tdilar va rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini qutladilar.

So‘ng davlatimiz rahbari otliq gvardiyachilar va mototsiklchilar hamrohligida oliy darajada muzokara o‘tkazish uchun Fransiya Prezidentining qarorgohi — Yelisey saroyiga yo‘l oldi.

Yelisey saroyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

Davlat rahbarlari ko‘p qirrali O‘zbekiston — Fransiya munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalarini yuzma-yuz va delegatsiyalar ishtirokida atroflicha muhokama qildilar.

Ikki mamlakat yetakchilarining 2023-yil noyabr oyida Samarqand shahrida o‘tgan uchrashuv davomida erishilgan kelishuvlar amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Turli darajalarda faol muloqotlar davom etmoqda. O‘tgan yilda tovar ayirboshlash hajmi ilk bor 1 milliard yevrodan oshdi, qo‘shma korxonalar soni 4 barobar ko‘paydi.

Yurtimizda Fransiyaning “Orano”, “EDF”, “Total”, “SUEZ”, “Veolia”, “Veolia” va ko‘plab boshqa yetakchi kompaniyalari muvaffaqiyatli ish olib bormoqda. Fransiya taraqqiyot agentligi bilan hamkorlik yangi sifat kasb etdi, u bilan yangi Hamkorlik dasturi qabul qilimoqda.

Tashrifga tayyorgarlik doirasida Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi va “MEDEF” biznes missiyasi samarali o‘tdi, Ishbilarmonlar palatasi o‘z ishini boshladi. Shu kunlarda Parij, Tuluza, Lion va Nissa shaharlarida hududlarning faol ishtirokida qo‘shma tadbirlar o‘tkazilmoqda. Kuni kecha qo‘shma tibbiyot forumi hamda fan va ta‘lim bo‘yicha konferensiya, O‘zbekistonning turizm salohiyati va madaniyatiga bag‘ishlangan taqdimotlar o‘tkazildi. Grets-Armenvil shahrida buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy byusti ochildi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiya-moliyaviy sohalarida o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, Fransiyaning yetakchi kompaniya va korxonalari bilan kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga ustuvor ahamiyat qaratildi.

Bu galgi sammitga yangi Innovatsiya va sanoat sherikligi dasturi tayyorlangan. Muhim mineral xomashyo resurslarini qazib olish

va qayta ishlash, energetika, infratuzilmani rivojlantirish, transport va boshqa tarmoqlarda umumiy qiymati 6,5 milliard yevrolik qo‘shma loyihalarni ilgari surish ko‘zda tutilgan.

Umuman, qo‘shma loyihalar portfeli 12 milliard yevrodan ziyodni tashkil etmoqda.

Shu ma‘noda, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalarini kengaytirish muhimligi ta‘kidlandi. Davlatimiz rahbari uzoq muddatli kooperatsiya aloqalarini yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish maqsadida O‘zbekiston — Fransiya investitsiya kengashini ta‘sis etish va uning birinchi yig‘ilishini joriy yil iyun oyida Toshkent investitsiya forumi doirasida o‘tkazishni taklif etdi.

Hududlararo aloqalarni rag‘batlantirish maqsadida kelgusi yilda Samarqand shahrida ikki mamlakat hududlarining birinchi forumini o‘tkazishga kelishib olindi.

Yetakchilar gumanitar yo‘nalishdagi amaliy hamkorlikni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratdilar. Parij shahrida Savskiy muzeyi to‘plamidagi avangard asarlar ko‘rgazmasini tashkil etish, madaniy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish bo‘yicha hamkorlik uchun mamlakatimizda Fransiya merosi instituti vakolatxonasini ochish rejalari qo‘llab-quvvatlandi.

Joriy yilda Toshkent shahrida Fransiya tadbirlari mutaxassislarini jalb qilgan holda O‘zbekiston — Fransiya universiteti ochilishi ta‘lim sohasidagi asosiy kelishuv bo‘lgani ta‘kidlandi. Fransuz tili o‘qituvchilarini tayyorlash sohasida ham samarali hamkorlik davom ettiriladi.

Ishbilarmonlik, turizm va madaniy almashinuvlarni faollashtirish maqsadida tomonlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlar sonini ko‘paytirish masalasini ko‘rib chiqadilar.

Davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar. Ko‘p tomonlama tashkilotlar doirasida bir-birini qo‘llab-quvvatlashni davom ettirish, terrorizm, ekstremizm, radikalizm, kiberjinoyatchilik va xavfsizlikka tahdid solayotgan boshqa zamonaviy xatarlarga qarshi kurashishda sa‘y-harakatlarni birlashtirish muhim ekani ta‘kidlandi.

Tizimli muloqotni yo‘lga qo‘yish va muvofqlashtirish maqsadida tashqi ishlar vazirliklari boshchiligidagi iqtisodiy idoralarni jalb qilgan holda Strategik rejalashtirish guruhini tuzishga kelishib olindi.

Muzokaralar yakunida davlat rahbarlari ikki mamlakat o‘rtasida strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risida tarixiy qarorga keldilar.

Uchrashuv yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev Prezident Emmanuel Makronni o‘zi uchun qulay vaqtda javob tashrifi bilan O‘zbekistonga kelishga taklif etdi.

Parij shahrida bo‘lib o‘tgan muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron Strategik sheriklik o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiyani qabul qildilar.

Davlat rahbarlari huzurida Mutaxassislar va talabalar harakatchanligi to‘g‘risidagi hukumatlararo bitim, Diplomatik pasport egalari vizita talablaridan o‘zaro ozod qilish to‘g‘risidagi hukumatlararo bitim hamda Fransiyaning yetakchi kompaniyalari bilan O‘zbekistonda 6,5 milliard yevrolik istiqbolli kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi Investitsiya va innovatsiya sohalaridagi hamkorlik dasturi almashildi.

Davlat tashrifi davomida quyidagilar ham imzolandi:

- O‘zbekiston — Fransiya universitetini tashkil etish to‘g‘risida hukumatlararo bitim;
- Readmissiya to‘g‘risida hukumatlararo bitim;
- Tashqi ishlar vazirliklarining 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi;

- 2026-2030-yillarda Fransiya taraqqiyot agentligi bilan hamkorlik dasturi;

- Xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik to‘g‘risida deklaratsiya;

- Sog‘liqni saqlash sohasida hamkorlik to‘g‘risida deklaratsiya;

- Fransuz tilini o‘qitishni kengaytirish to‘g‘risida bayonnomaga;

- Musiqqa, kino va teatr sohalarida hamkorlik to‘g‘risida deklaratsiya;

- Madaniyat va san‘atni rivojlantirish jang‘armasi bilan Fransiya Madaniyat vazirligi, Madaniy meros milliy instituti va Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti o‘rtasidagi hamkorlik bitimlari;

- Toshkent va Parij shaharlari o‘rtasida sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risida bayonnomaga va boshqa ikki tomonlama hujjatlar.

Yelisey saroyidagi oliy darajadagi uchrashuv chog‘ida Prezident Shavkat Mirziyoyev Prezident Emmanuel Makronga buyuk fransuz yozuvchisi Viktor Gyugoning o‘zbek tiliga tarjima qilingan “Kulayotgan odam” romanining ilk nusxasini sovg‘a qildi.

Ushbu kitob ommaviy nashrdan chiqishi va tez orada kitobxonlar e‘tiboriga havola etilishi kutilmoqda.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Fransiya ishilarmon doiralariyning yetakchi vakillari bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Davlatimiz rahbari 2018 va 2022-yillarda ushbu mamlakatga rasmiy tashriflari hamda 2023-yilgi Samarqand sammitida ham Fransiya tadbirkorlari bilan uchrashgan edi.

Forum ana shu ochiq va konstruktiv muloqotning davomi bo‘ldi. Bu galgi uchrashuv unda O‘zbekistonning xususiy kompaniyalari rahbarlari va vakillari ham ishtirok etgani bilan ajralib turadi.

Tadbirda Fransiyaning tashqi savdo va xorijdagi fransuz fuqarolari ishlari bo‘yicha vazir-delegati Loran Sen-Marten, Fransiya taraqqiyot agentligi bosh direktori Remi Riu, “MEDEF International” rahbari — “Orano Mining” kompaniyasi boshqaruvi raisi Klod Imoven, shuningdek, ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari, investitsiya va bank-moliya

institutlarining 60 dan ortiq rahbarlari va vakillari ishtirok etdi.

Fransiya biznesi tomonidan SUEZ, Veolia, Total, EDF, Veolia, Orano, Meridiam, Saint-Gobain, Imerys, Natixis, Societe Generale, BPI France, Airbus, MND, Eiffage, Schneider Electric, Total Energies, Alstom, Technip Energies, Egis, ADP Group, Ellipse Projects, Assystem, ATR va boshqa kompaniyalar qatnashdi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron bilan o‘tgan samarali muzokaralarni yuksak baholab, ish-bilarmonlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va qo‘shma kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilganini ta‘kidladi. Uchrashuvning asosiy natijasi sifatida O‘zbekiston — Fransiya munosabatlarini strategik sheriklik darajasiga ko‘tarish haqida tarixiy qaror qabul qilindi.

Ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirishda ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari muhim o‘rin tutayotgani qayd etildi.

Fransiya ishilarmon doiralari vakillariga Yangi O‘zbekistondagi ortga qaytmas iqtisodiy islohotlar strategiyasini qo‘llab-quvvatlayotgani uchun minnatdorlik bildirildi.

Joriy yil yanvar oyida “MEDEF” tarkibidagi yirik kompaniyalar rahbarlarining Toshkent shahriga tashrifi natijalari yuksak baholandi.

Fransiya kompaniyalari bilan mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik tarmoqlarida qator qo‘shma loyihalar amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Ushbu mamlakat investitsiyalarini faol jalb etish va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, Fransiya korxonalarining yechimlari, to‘plangan katta tajriba va bilimlarini qo‘llashdan O‘zbekiston manfaatdor.

O‘zbekiston Prezidenti Fransiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish muhimligini ta‘kidladi.

Fransiya kompaniyalari bilan 2027-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan innovatsion va sanoat kooperatsiyasi dasturi bunga xizmat qiladi. Unga umumiy qiymati 6,5 milliard yevro bo‘lgan aniq yo‘nalish va loyihalar kiritilgan.

Dasturi amalga oshirish doirasida Fransiyaning yetakchi bank va moliya tashkilotlarini faol jalb qilgan holda biznes tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning samarali vositalari keng joriy etilishi ko‘zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari muhim mineral resurslarning istiqbolli konlarini o‘zlashtirish va ularni chuqur qayta ishlash, qurilish materiallari, kimyo va farmatsevtika tarmoqlari, elektrotexnika sanoati, qishloq xo‘jaligida zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish va boshqalarni O‘zbekiston — Fransiya ish-bilarmonlik hamkorligini yanada rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari sifatida ko‘rsatib o‘tdi.

Energetikada energiya ishlab chiqarish va saqlash quvvatlarini kengaytirish, O‘zbekiston hududlarida suv xo‘jaligi, kommunal, turizm, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamkorlikni rivojlantirishda katta salohiyatga ega.

— Ikki mamlakat kompaniyalari ishtirokidagi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va jadallashtirish maqsadida doimiy faoliyat yuritadigan O‘zbekiston — Fransiya investitsiya kengashini ta‘sis etishni taklif qilaman. Biz tomondan unga O‘zbekiston Bosh vaziri rahbarlik qiladi. Birinchi uchrashuvni iyun oyida Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida o‘tkazishimiz mumkin. Barchangizni tashkil etilayotgan kengashning to‘la huquqli a‘zosi sifatida bo‘ljak tadbirda faol ishtirok etishga taklif etaman, — dedi davlatimiz rahbari.

O‘z navbatida, Fransiya ish-bilarmon doiralari vakillari hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha aniq taklif va rejalarni bayon qildi.

Davlatimiz rahbari ish-bilarmon doiralari vakillarga muvaffaqiyatlar tilab, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlariga O‘zbekiston Hukumati tomonidan tasdiqlanadigan “yo‘l xaritalari” asosida erishilgan kelishuvlar ijrosi usidan nazoratni ta‘minlash bo‘yicha topshiriqlar berdi.

Tashrif doirasida Parij shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Fransiya Respublikasining oliy mukofoti — Faxriy legion ordeni bilan taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Yuksak mukofotni davlatimiz rahbariga Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron tantanali ravishda topshirdi.

O‘zbekiston Prezidenti ikki mamlakat hamkorligini rivojlantirish, xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro anglashuvni mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hisssasi uchun ushbu ordeniga sazovor bo‘ldi.

Mamlakatimiz yetakchisi mukofot uchun Fransiya rahbariga samimiy minnatdorlik bildirib, keyingi yillarda mermahsul hamkorlikda yuksak natijalarga erishilgani, ikki mamlakat munosabatlari strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Faxriy legion ordeni 1802-yilda ta‘sis etilgan. Fransiya ushbu orden alohida xizmatlarning davlat darajasida e‘tirof etilishi va shon-sharafning eng yuqori belgisi hisoblanadi.

Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron Yelisey saroyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev sharafiga davlat qabul marosimini uyushtirdi. Qabulda O‘zbekiston va Fransiya rasmiy delegatsiyalari a‘zolari, tanliq madaniyat, san‘at va fan arboblari, ish-bilarmon doiralari va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari Emmanuel Makron va uning rafiqasi Brijit Makronga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, bugun bo‘lib o‘tgan muzokaralar tarixiy ahamiyatga ega ekanini, ularning natijasida mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Fransiya yetakchisi bugun o‘tkazilgan muzokaralar natijalarini va imzolangan bitimlarni olqishladi.

— Bir necha yil ichida biz energetika, suv resurslarini boshqarish, kommunal xizmatlar,

transport, barqaror turizm kabi muhim sohalarida uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga erishdik. Buning dalili sifatida Fransiya hukumati va Fransiya taraqqiyot agentligi ko‘magida fransuz kompaniyalari O‘zbekistonga investitsiya kiritayotgani, hududlarda qo‘shilgan qiymat va ish o‘rinlari yaratilayotgani, yoshlar kasb o‘rganib, hayotda o‘z o‘mini topayotganini keltirishim mumkin, — dedi Emmanuel Makron.

Tomonlar xalqlarimiz farovonligi yo‘lida O‘zbekiston — Fransiya hamkorligini yanada mustahkamlashga qat‘iy intilishlarini bildirdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Fransiya davlat tashrifi doirasida BMTning Ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (UNESCO) bosh direktori Odri Azuleni qabul qildi.

BMT tizimidagi ushbu nufuzli tuzilma bilan samarali hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari, shuningdek, joriy yilning kuzida Samarqand shahrida tashkilot Bosh konferensiyasining 43-sessiyasiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishning amaliy jihatlarini muhokama qilindi.

Ko‘p qirrali sheriklik bugungi kunda yuksak darajada ekani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zbekiston tashabbusi bilan axborotdan foydalanish va bolalar ta‘limi masalalari bo‘yicha rezolyutsiyalar qabul qilindi.

Mamlakatimiz Madaniy boyliklarni saqlash va restavratsiya qilish bo‘yicha xalqaro markazga a‘zo bo‘ldi. Buxoro “Kreativ shaharlar tarmog‘i”ga qo‘shildi. Samarqanddagi Ipak yo‘li universitetida UNESCO kafedrasi ochildi. O‘tgan yili ta‘lim, madaniyat, raqamli va innovatsion texnologiyalar sohalarida 7 ta yangi loyihani amalga oshirish boshlandi.

Turon qo‘llari va Zarafshon-Qoraqum yo‘lrigi, ipakchilik, kulolchilik, rubob chalish va iftorlik an‘analari, “Buxoro amiri devonxonasi arxivi”, “Turkiston albomi”, “Xudoybergan Devonov fotoalbomi” UNESCOning maxsus ro‘yxatlariga kiritildi.

Ta‘kidlash joizki, Samarqand shahrida bo‘ljak Bosh konferensiyaning 43-sessiyasi so‘nggi 40 yil ichida birinchi marta UNESCOning Parij shahridagi qarorgohidan boshqa joyda o‘tkaziladi. Bu voqea tashkilotning 80 yilligiga to‘g‘ri keladi.

Bosh direktor Odri Azule O‘zbekiston bilan sarmahsul hamkorlikni yuksak baholab, bo‘ljak tadbirga keng ko‘lamli tayyorgarlik ko‘rilayotgani uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

Amaliy hamkorlik dasturlarini yanada kengaytirish, shuningdek, UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi doirasidagi forum va tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha yaqindan hamkorlikni davom ettirishga kelishib olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiya davlat tashrifi davom etmoqda.



O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING FRANSIYAGA DAVLAT TASHRIFI IKKI TOMONLAMA HAMKORLIK TARIXIDA YANGI BOSQICHNI BOSHLAB BERADI

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING FRANSIYAGA 11-MART KUNI BOSHLANGAN DAVLAT TASHRIFI XORIJIY OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI DIQQAT MARKAZIDA

Britaniyaning mashhur “London Post” yangiliklar portali mazkur davlat tashrifi Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning taklifiga binoan amalga oshirilgani haqida yozdi.

Qayd etilishicha, Parijga tashrif kun tartibiga oliy darajadagi muzokaralar va tadbirlar, shuningdek, Fransiya rasmiy va ishbilarmon doiralari bilan bir qator uchrashuvlar o‘rin olgan. “Savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy-moliyaviy sohalarida o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, Fransiyaning yetakchi kompaniya va korxonalari bilan hamkorlikdagi loyihalarni ilgari surishga ustuvor e’tibor qaratilyapti”, deyilgan “London Post” maqolasida.

Nashrda, sammit yakunlari bo‘yicha hukumatlararo va idoralararo kelishuvlar to‘plami qabul qilangani xabar berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston rahbari UNESCO Bosh direktori Odri Azule bilan uchrashib, joriy yil kuzida Samarqand shahrida tashkilot Bosh konferensiyasining 43-sessiyasiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishning amaliy jihatlarini muhokama qildi, deya qayd etilgan materialda.

Bundan tashqari, “London Post” O‘zbekiston — Fransiya munosabatlari bugungi holatiga bag‘ishlagan maqolani o‘quvchilar e’tiboriga taqdim qildi. Unda O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi idoralararo darajadagi hamkorlik keng yo‘nalishlarni qamrab olishi qayd etilgan. 2023-yil 2-noyabr kuni ikki davlat rahbarlari ishtirokida bir qator hamkorlik hujjatlari, jumladan, ta’lim, madaniy meros va ichimlik suv ta’minoti infratuzilmasini yaxshilash sohalarida kelishuvlar imzolandi.

O‘zbekiston rahbarining Fransiya davlat tashrifi Vengriyaning “Daily News Hungary” elektron nashri tomonidan ham keng yoritilayotir.

“Fransiya rivojlangan industrial-agrar mamlakat bo‘lib, sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Iqtisodiy salohiyat bo‘yicha Fransiya dunyoning eng rivojlangan yetti davlati qatoriga kiradi, — deyilgan mazkur nashrda e’lon qilingan maqolada. — Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil oktabr va 2022-yil noyabr oylarida Fransiya rasmiy tashriflari, shuningdek, Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning 2023-yil noyabr oyida O‘zbekistonga tashrifi barcha sohalaridagi siyosiy mulqot va hamkorlikni izchil rivojlantirishga yangi sur’at qo‘shdi”.

Qayd etilganidek, O‘zbekiston va Fransiya Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida muntazam ravishda siyosiy maslahatlashuvlar o‘tkazilmoqda. Ularda ikki davlat diplomatlari O‘zbekiston — Fransiya munosabatlari bugungi holati, oliy darajadagi o‘zaro tashriflar chog‘ida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, shuningdek, hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy bazasini kengaytirish masalalari muhokama qilinaypti. Fransiya O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda o‘zaro ishonchni mustahkamlash, Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish,

shuningdek, YI bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi yangi bitimni tezroq imzolash borasidagi sa’y-harakatlarini yanada qo‘llab-quvvatlashga tayyor.

Janubiy Koreyaning nufuzli “UN Journal” bosma nashrida ham O‘zbekiston — Fransiya hamkorligiga bag‘ishlangan maqola bosildi.

Unda Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning 2023-yil 2-noyabr kuni Samarqandga tashrifi chog‘ida o‘zaro munosabatlarni strategik sheriklik darajasiga olib chiqish borasidagi sa’y-harakatlari e’lon qilingani hamda “yashil” energiya, xomashyo qazib olish va qayta ishlash, innovatsion qishloq xo‘jaligi, suv ta’minoti, logistika, infratuzilmani rivojlantirish kabi sohalarida yangi yirik loyihalarni ilgari surish chora-tadbirlari muhokama qilingani ta’kidlangan.

Xususan, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sheriklik munosabatlari rivojlantirishdan ikki davlat manfaatdor ekani qayd etilgan. O‘zbekistonda yaratilgan qulay ishbilarmonlik muhiti va sarmoyaviy imkoniyatlar fransuz biznesi vakillarini tobora ko‘proq jalb qilmoqda.

“2024-yilda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi o‘tgan yilga nisbatan qariyb 14 foizga oshib, 1,2 milliard dollarga yetdi. Bugungi kunda O‘zbekistonda fransuz sheriklar ishtirokidagi 50 ta korxona, jumladan, 23 tasi 100 foiz fransuz kapitali bilan faoliyat yuritmoqda”, deya qayd etgan “UN Journal”.

Ma’lum qilinganidek, “Total Eren”, “Veolia”, “EDF”, “Orano”, “Lactalis”, “Carrefour” va “Shiever” kabi jahon miqyosidagi kompaniyalar O‘zbekistonda energetika, geologiya-qidiruv, oziq-ovqat sanoati va chakana savdo sohalarida faol ishlayapti. Fransiya taraqqiyot agentligi O‘zbekistonda shahar infratuzilmasi, “yashil iqtisodiyot”, sanitariya, gidroenergetika va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish loyihalarida ishtirok etmoqda.

Iordaniyaning yetakchi “Ammon News” elektron nashrida Prezident Shavkat Mirziyoyevning Fransiya davlat tashrifi va o‘zbek-fransuz hamkorligi istiqbollariga bag‘ishlangan tahliliy maqola e’lon qilindi.

Elektron nashrning yozishicha, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy va moliyaviy sohalarida o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, Fransiyaning yetakchi kompaniya va muassasalari bilan hamkorlik loyihalarini ilgari surishga alohida e’tibor qaratiladi.

Maqola yakunida “Bugungi kunda O‘zbekiston — Fransiya munosabatlari jadal rivojlanib, siyosat va iqtisodiyotdan tortib, fan, madaniyat va ta’limgacha bo‘lgan keng ko‘lamli sohalarini qamrab olgan. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiya davlat tashrifi ikki tomonlama hamkorlik tarixidagi muhim voqea bo‘lib, tashrif davomida ilgari suriladigan yangi tashabbus va imzolamadigan kelishuvlar sheriklikni yanada yuqori bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi”, deb yozgan “Ammon News”.

“Dunyo” AA



DEPUTATLAR MASLAHATCHI EMAS, ISLOHOTLAR ISHTIROKCHISIGA AYLANMOQDA

Jizzaxdan Sharq va G‘arbni bog‘lovchi qadim Buyuk ipak yo‘li vorisi — O‘zbekiston temir yo‘li va katta magistrall trassa o‘tgani bois, bu ko‘hna zamindagi o‘zgarishlar yurtdoshlarimizning ham, xorijlik sayyohlarning ham nazaridan chetda qolmaydi. Xususan, M-39 xalqaro avtomobil yo‘lining Jizzax shahrini chetlab, qir-adirlar orqali o‘tuvchi qismida qisqa muddatda qad rostlagan yangi shahar — “Yangi O‘zbekiston” massivi har bir odamning diqqatini tortishi tabiiy.

Morguzar tog‘lari etagidagi Sayxon deb ataluvchi adirlar bag‘ridagi sayxonlikda barpo etilgan bu zamonaviy mo‘jaz shaharchani viloyatda keyingi besh-olti yildagi o‘zgarishlarning ramzi, deyish mumkin. 103 gektar maydonda barpo etilayotgan zamonaviy yangi turar joy massivida dastlabki bosqichda qurilishi rejalashtirilgan jami 1450 xonadondan iborat, 9 va 16 qavatli 29 ta uy, yangi maktab, maktabgacha ta’lim tashkiloti va boshqa ijtimoiy muassasalar binolari bitkazilish arafasida. 2024-yil yakunida ko‘p qavatli uylardan 13 tasi foydalanishga topshirilib, 688 ta xonadonga egasi ko‘chib kirdi.

Gap qurilish haqida borar ekan, viloyatda besh-olti yil avval “Obod qishloq” dasturi doirasida Do‘stlik tumanidagi Manas qishlog‘ini, Mirzacho‘l tumanidagi Gagarin shaharchasini qayta qurishda respublikamizga namuna bo‘lgan tajriba bugun ham izchil davom ettirilayotganini ta’kidlash joiz.

Viloyatda o‘tgan yili 5 ta manzilli dasturga asosan umumiy qiymati 1,9 trillion so‘mlik jami 637 ta inshootda qurilish qilindi. Jumladan, ushbu dasturlarda 4500 xonadonga mo‘ljallangan uy-joylar qurish belgilangan bo‘lib, 2024-yilda 3317 ta oila yangi uyga ko‘chib kirdi.

2024-yilda viloyatda 1 milliard 28 million dollarlik xorijiy investitsiya va kredit o‘zlashtirildi. Ushbu sarmoyalari hisobiga amalga oshirilgan loyihalar samarasi o‘laroq 10 ming 500 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Masalan, Jizzax shahrida “BYD Jizzakh” MCHJ tomonidan yillik quvvati 50 ming dona zamonaviy elektromobil ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi va 1200 kishi ishli bo‘ldi. G‘allaorol tumanida “ADM Jizzakh” MCHJning 2-bosqichi ishga tushirilib, korxonada yillik ishlab chiqarish quvvati 5 ming donadan 32 ming donaga yetkazildi va 1300 ta yangi ish o‘rni yaratildi.



yildagiga nisbatan 55 million dollar yoki 24 foiz ko‘p eksport qilinishi kutilyapti.

Tumanlar markazlarida oqova suv chiqarish va tozalash inshootlarini qurish, ko‘p qavatli uy-joy fondini yaxshilash, issiqlik tizimlarini ta’minlash loyihalariga ham qo‘shimcha resurslar jalb etilishi rejalashtirildi. Paxtakor, Zafarobod, Amasoy, Do‘stlik, Zomin va Mirzacho‘l tumanlarida elektr ta’minotini yaxshilash uchun qo‘shimcha uskunalar o‘rnatish, uzatish tarmoqlarini yangilash kabi loyihalarni amalga oshirish uchun ham respublika va xalqaro moliya institutlari mablag‘lari jalb etilyapti.

Shubhasiz, eng katta va birinchi o‘rindagi vazifa ijtimoiy sohalarini rivojlantirishdan iborat. Ushbu bosh vazifadan kelib chiqib, o‘tgan yili Oliy Majlis va xalq deputatlari mahalliy kengashlarga bo‘lib o‘tgan saylovdan so‘ng hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishga yondashuvlarda ham jiddiy o‘zgarishlar yuz bermoqda.

Davr oldimizga yangi vazifalar qo‘ymoqda. Endilikda viloyat kengashi faqat yig‘ilish o‘tkazib, tavsiyalar ishlab chiqadigan tuzilma emas, chinakam xalq hokimiyati organiga aylanmoqda. Xalq deputatlari kengashlarida mahalliy byudjetni shakllantirish, hududlarni rivojlantirish dasturlari ishlab chiqish va tasdiqlash, ijrosi ustidan izchil nazorat o‘rnatish, ijro hokimiyati rahbarlarining hisobot va axborotlarini tinglash uchun samarali mexanizmlarni joriy etish masalalari ham keng muhokama qilinmoqda.

Kengashda viloyatni rivojlantirish bilan bog‘liq qarorlarni qabul qilish, byudjetni tasdiqlash va ijrosini nazoratga olishda, davlat ijroiya tashkilotlari amaldorlaridan hisobot talab qilishda kengashning doimiy komissiyalari, deputatlar guruhlari faoliyati ham faollashmoqda. Deputatlarning viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda davlat dasturlari asosida ishlab chiqilgan loyihalarning bajarilishida ishtiroki ortmoqda.

Deputatlarning, doimiy komissiyalarning, deputatlar guruhlarining ayni rejaralar asosida xalq bilan yaqin mulqotda bo‘lishi, aholining talab va ehtiyojlarini o‘rganishi, odamlarni tadbirkorlikka jalb etishga alohida e’tibor qaratilishi hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishdagi katta imkoniyatlardan biridir. Endilikda bu ish doimiy va tizimli jarayonga aylanib borayotir. Tasdiqlangan reja-grafik asosida turli darajadagi davlat idoralari rahbarlarining aholi bilan o‘tkazilayotgan uchrashuvlarida, sayyor qabullarida Prezident tomonidan qo‘yilgan vazifalar asosida ijtimoiy masalalar yechimiga e’tibor kuchaymoqda.

Bularning barchasi, shubhasiz, yaxshi o‘zgarishlardir. Hayotimizni yanada yaxshilash sari qilinayotgan bu o‘zgarishlarning barchasi davlat dasturlari, belgilab berilgan ustuvor vazifalar asosida mamlakatimizning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatli.

Parda SHUKUROV,
Xalq deputatlari Jizzax viloyati kengashi raisi

Hududlar hayoti

AVVAL ISHCHI EDI, ENDI ISH BERUVCHI

Mashhura Abbasova ishlash uchun turmush o‘rtog‘i bilan xorijga ketdi. Oilasidan uzoqda yashash, farzandlari sog‘inchi oldida topgan daromadi tatimadi, hech gap bo‘lmay qoldi. Keyin er-xotin vatanga qaytdi. Avvaliga uyda qoramol boqdi. Sharoit to‘g‘ri kelmagach, bedanachilikni yo‘lga qo‘ydi. Mana, ikki yildirki, ro‘zg‘orlariga qut-baraka, ko‘ngillariga xotirjamlik kirdi.

— Musofir bo‘lsangiz, vataningizdagi imkoniyatlarni ko‘z oldingizdan o‘tkazar ekansiz, — deydi Oqqo‘rg‘on tumanidagi Qo‘rg‘oncha mahallasida yashovchi Mashhura Abbasova. — O‘shanda xonadonimizdagi yetishmovchilik sabab uzoq yurtga ketishga majbur bo‘lgandik. Biroq xorijda o‘z yurtimizda ham yaxshi daromad olish mumkinligini anglab yetdik. Ayni paytda hovlimizdagi qo‘shimcha binoda 1000 dan ziyod bedana boqyapmiz. Kuniga 300 tadan 500 tagacha bedana tuxumi yig‘ib olamiz. Har bir tuxumning ulgurji bahosi 500 so‘m. Asosiy xaridorlarimiz mahalliy bozor, do‘konlar. Bedana go‘shтини esa turli tamaddixonalaraga topshiramiz. Yaqinda mahallamizdagi hokim yordamchisiga kredit olish uchun murojaat qilgandik, 33 million so‘m imtiyozli kredit berishdi. Bedanachilik daromadimiz oshishiga turki bo‘ladi, albatta. Tez fursatda uy sharoitida bedana tuxumidan polaponlar ochirishni yo‘lga qo‘ymoqchimiz. Shuning o‘rtidan oila a‘zolarimizning uch nafari doimiy ish bilan o‘zini o‘zi band qildi.

Yana bir qahramonimiz Nishonali Eshmatov ham shu mahallada yashaydi

Ayni paytda 8 sotix issiqxonada rezavorlar yetishtirmoqda.

— 2018-yili xorijga dehqonchilik qilish uchun borib, tarvuz yetishtirish bo‘yicha tajriba almashdim, — deydi Nishonali aka.

— Qishloqqa qaytgach, avvaliga tomorqada kichik issiqxona qurdik. Daromadi yomon bo‘lmadi. Har yili olgan foydamizning teng yarmiga uni kengaytirib bordik. Bilasiz, issiqxonalarini istish qiyin, yoqilg‘i qimmat. Shu bois, termos usulida sovuqqa chidamli mahsulotlar yetishtiramiz. Bu usulning qulayligi shundaki, qish kunlari tashqarida harorat 3-5 daraja sovuq bo‘lsa ham ichkarida 20 daraja issiq bo‘ladi. Hozir rediska hamda salat bargi yetishtiryapmiz. Ekinlarni tomchilatib sug‘orish natijasida suvni ham tejayapmiz. Bo‘shagan maydonga peshmash bulg‘or qalampir, pomidor ko‘chatlari ekamiz. O‘tgan yili bulg‘or qalampirdan 70 million so‘m daromad oldik. Issiqxonadan yiliga 100 million so‘m sof foyda olish mumkin. Faqat ishlash, izlanish kerak.

Nishonali aka tomorqasida biogumus ham yetishtiradi. Sababi, bir yilda uch marta hosil olish uchun yer kuchli bo‘lishi

kerak. Kimyoviy o‘g‘itlar esa vaqt o‘tib, unumdorlikni susaytiradi. Bunday kezlarda biogumusning kuchi yerga qayta jon bag‘ishlaydi. Nishonali akaning ta’biri bilan aytganda, qo‘ldan berganga qush to‘ymaydi. Mehnat qilgan odam esa kam bo‘lmaydi.

Qo‘rg‘onchalik Bobur Ismoilovga asalarichilik ota meros. Olti yil muqaddam 7 ta oila asalarini parvarishlashdan ish boshlagan Boburjon bugun ularning sonini 200 taga yetkazgan. Yana mahalladagi xonadonlarga ham korporatsiya usulida asalari oillarini yetkazib berishni yo‘lga qo‘ygan. Har bir asalari oilasi bir mavsumda 15 kilogrammdan



Bugun Oqqo‘rg‘on tumanidagi Qo‘rg‘oncha mahallasida xorijda ishlab qaytganlar bilan ishlash tizimli yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur mahalladagi 625 ta xonadonda 3435 kishi istiqomat qiladi. Ulardan 55 nafari ishsiz bo‘lsa, 18 nafari kambag‘al oila reyestriga kiritilgan.

bol yig‘ib beradi. Mahallada 30 dan ziyod xonadon egalari u singari asalarichilikni yo‘lga qo‘ygan.

“Farhod va Charosxon” xususiy korxonasi rahbari Saidmuhammad Tursunov ham xorijda ishlab qaytganlardan.

— Sakkiz yil avval xonadonimizda ikki mingta broyler jo‘ja parvarishladik, — deydi u. — Keyin shartnoma asosida ishlash uchun xorijga ketdim. Uyga qaytgach, tovuq yetishtirishni yo‘lga qo‘ydim. Yiliga 15 mingta broyler jo‘ja yetishtiryapmiz. Ishonsangiz, avval chet elga ishchi bo‘lib borgan bo‘lsam, bugun korxonada jami o‘n nafar yoshni ish bilan band etganman. Boshqachaga aytсам, avval ishchi edim, endi ish beruvchiman.

Darhaqiqat, bugun Oqqo‘rg‘on tumanidagi Qo‘rg‘oncha mahallasida xorijda ishlab qaytganlar bilan ishlash tizimli

yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur mahalladagi 625 ta xonadonda 3435 kishi istiqomat qiladi. Ulardan 55 nafari ishsiz bo‘lsa, 18 nafari kambag‘al oila reyestriga kiritilgan.

— Hududimizda 12 ta tadbirkorlik subyekti bo‘lib, o‘tgan yil davomida 65 fuqaroga 736 million so‘m imtiyozli kredit ajratildi, — deydi mahalla fuqarolar yig‘inidagi hokim yordamchisi Husan Bahorov. — Ish faoliyatim davomida 9 fuqaroga subsidiya asosida 35 million so‘mlik asbob-uskunalar berilgan bo‘lsa, 109 fuqaro doimiy ishga joylashtirildi. 11 fuqaro shartnoma asosida ishlash uchun xorijga yuborildi, kam daromadli migrantlarning 19 nafari yurga qaytarilib, doimiy bandligi ta’minlandi. Sayxunobod tajribasi bo‘yicha 5 ta xonadon tanlab olinib, ularga 6 turdagi yordam ko‘rsatildi. Uychi tajribasi asosida 32 ta mikroloyiha tashkil etilib, 390 million so‘m imtiyozli kredit hisobiga 59 fuqaro band qilindi. 10 ta xonadonda 4 sotixdan issiqxonalar barpo etildi. Shuningdek, 4 ta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil qilindi.

Joriy yilda yuqorida aytib o‘tilgan 55 nafar ishsizga 610 million so‘m kredit ajratish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining 2022-yil 10-sentabrdagi “Dehqon xo‘jaliklari tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash orqali aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorga asosan, 79 fuqaroga ajratilgan 24 gektar yerga “Bir kontur — bir mahsulot” tamoyili asosida sabzavot, ko‘kat, karam va dukkakli ekinlar ekish belgilangan. Hududdagi 2 gektar maydonda 20 fuqaro uchun issiqxona quriladi. Bir so‘z bilan aytganda, hokim yordamchisi ko‘magida 110 fuqaroning bandligi ta’minlangani hududda namunalni ishlar olib borilayotganiga yaqqol misoldir.

Nigora O‘ROLOVA,
jurnalist



AVLODLARGA NIMA DEYMIZ?

2025-yil 13-mart, 51-son



Xolmo'min YODGOROV,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan yurist

**O'zbekiston xalq yozuvchisi
O'tkir Hoshimovning
“Yarim asr daftari” kitobi
mutolaasi jarayonida
“Avlodlarga nima deymiz?”
sarlavhali maqolasiga ko'zim
tushdi. Maqola muqaddam
1988-yilda “Sharq yulduzi”
jurnalida bosilgani va
qo'lma-qo'l bo'lib
o'qilgani esmda.
Adibimiz o'sha davrning
o'ta muammoli masalalarini
jasorat bilan ko'tarib
chiqqan va bu holatda
ertangi kun avlodlarga
nima deymiz, degan savolni
qo'ygan.**

Xususan, adib mustabid tuzum davrida paxta yetishtirishni asosiy vazifa deb bilib, yerga, tabiatga va odamlar sog'lig'iga qanchalik zarar yetkazilayotganini kuyinib qayd etish bilan birga, Orolni asrash, yerdan oqilona foydalanish hamda paxtani xomashyo sifatida arzon-garovga sotish o'rmiiga undan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, shu orqali qo'shimcha ish o'rinlari yaratish lozimligi haqidagi fikrlarini biror e'tirozga o'rin qoldirmagan holda asoslab bergan.

Maqolani qayta o'qib chiqarkanman, adib sobiq sho'rolar davrida jasorat bilan ko'tarib chiqqan muammolar — paxta yakka-hokimligiga barham berilgani, majburiy mehnat o'timishda qolgani, Orol bilan bog'liq og'riqlarni bartaraf etish yuzasidan ulkan ishlar qilinayotganini mamnuniyat bilan e'tirof etgim keldi.

Keyingi yillarda jamiyatimizning deyarli barcha jabhalarida inson manfaatini, uning baxtli yashashini ta'minlash borasida zarur islohotlar amalga oshirildi va bugun u samarasini ko'rsatmoqda. Boshpanaga muhtoj yuz minglab aholi uyli-joyli bo'ldi, imkoniyati cheklangan fuqarolarning ijtimoiy himoyasi kuchaytirildi, yoshlar ta'lim va tarbiyasiga katta e'tibor qaratildi, voyaga yetmagan bolalar mehnatiga barham berildi. Yopilib ketgan, xarobaga aylangan bolalar bog'chalari ta'mirlanib, qayta tiklandi. Eng chekka hududlarda ham bolalar bog'chalari qurildi.

Bola huquqlari himoyasini ta'minlash borasida qonunlarimiz takomillashirildi. Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (bolalar ombudsmeni) faoliyati yo'lga qo'yildi. Xullas, uzoq yillardan buyon xalqimiz orzusiga aylanib kelgan masalalarning aksariga yechim topildi, bor muammolar ustida doimiy ishlanmoqda.

Poytaxt va katta shaharlarni hisobga olmaganida, yaqin-yaqin gacha hududlarda elektr energiyasi katta uzilishlar bilan sutkasiga uch-to'rt soat berilar, odamlar ham bunga ko'nikib qolgan edi. Bugun vaziyat ancha yaxshilangan.

Pul yo'qligi tufayli oylik ish haqi va nafaqalar o'z vaqtida berilmasdi. Plastik kartochkalar bor, ammo undan pul yechib oladigan bankomatlar u yozda tursin, savdo va xizmat ko'rsatish do'konlarida terminallar mavjud emasdi.

Shu bilan bog'liq bir holat xotiramda muhurlanib qolgan. 2016-yilning kech kuzida

davlatimiz rahbari topshirig'iga asosan, aholi bilan uchrashib, muammolari aniqlash va o'rganish uchun Buxoro viloyatiga bordik. Qaysidir tuman hokimligining zali to'la. Uchrashuvdan muddaoni tushuntirib, nima kamchiliklar bor, deganimizda, dastlab bir oz muddat hech kimdan sado chiqmadi, chunki oldin muammolar so'ralmagan. Keyin soch-soqoli oppoq, yoshi ulug' bir otaxon minbarga ko'tarildi. Otaxon “Mehmonlar, xush kelibsizlar!”, deya so'z boshlab, xalq yaxshi yashayotgani, paxta va g'alla rejalari bajarilganini gapirdi. Keyin “Bir-ikki muammolar ham bor, lekin buni aytgan bilan hal qilish imkoni bormi-yo'qmi, shunga ikkilanib turibman”, dedi. Otaxonga tortinmasdan kamchiliklarni bemalol aytaverishini, davlat rahbari topshirig'iga ko'ra, muammolar o'rganilayotgani va yechimini topishga harakat qilinishini aytidik. Shundan so'ng u pensiya puli plastik kartochkasiga oyma-oy tushirib berilayotgani, lekin uni ishlatib bo'lmayotgani, plastik kartochkadagi pulga biror nima xarid qilish uchun viloyat markazidagi do'konlarga borish kerakligi, buning uchun esa taksiya pul to'lash lozimligi haqida gapirdi. “Xullas, plastik kartochkadan to'yona ham qilib bo'lmayotgani sababli to'ylarga borolmayapmiz, pensiyaning bir qismini naqd bersa yaxshi bo'lardi”, deya so'zlarini davom ettirdi. Shunga o'xshash boshqa masalalarda takliflarini bildirdi.

Aholi bilan ilk muloqot natijasida taklif tayyorlandi, oradan to'rt kun o'tib, Prezidentning pensiya to'lovlarini uni oluvchilarning xohishiga qarab naqd yoki plastik kartochka orqali to'lash haqidagi qarori chiqdi. Barcha xizmat ko'rsatish va savdo shoxobchalari terminallar bilan ta'minlandi.

O'tgan yillar mobaynida odamlarning sharoitini yaxshilash, og'irini yengil qilish borasida amalga oshirilgan ishlarining barchasiga elimiz shohid bo'lib turgani sababli ularni birma-bir sanab o'tishga ehtiyoj yo'q deb o'ylayman.

Lekin shuni aytmoq joizki, biz muayyan ma'noda katta orzularga berilib, sabr-qanoat hamda shukrni unutib qo'yayotgandekmiz. Orzu-niyat qilmoq yaxshi, lekin bir soat elektr energiyasi yoki gaz uzilishiga katta fojia deb qarashimiz yaxshi emas. Menimcha, bu noshukrlik belgisi.

Bir yigit internetda chiqib, haq gapni aytdi. Bolaligida bir hovlidagi to'rt xonali uyda otasi va amakilari, jami to'rt oila yashagan va ularga bitta oshxona yetarli bo'lgan. Bugungi kunda o'zi va ukasi ota hovlisidagi sakkiz xonali uyda yasharkan. Lekin bunga qanoat qilmay, alohida yer uchastkasi olib, sakkiz xonali uy quribdi. Hozir shu hovlidagi kamchiliklarni bitirish uchun oilasidan uzoqda, xorijda ishlab yurgan ekan. “Hammasiga o'zimiz, nafsimiz aybdor”, deb chiroyli xulosa qildi o'sha yigit.

Shular haqida o'ylarkansan, bunday fikr tug'iladi. Suyukli adibimiz hayotligidayoq o'zi ko'targan muammolarning hal etila boshlanganiga guvoh bo'lgan va ichki qoniqish bilan asarlarida aks ettirgan. Xo'p, shunday bo'lsa-da, umri nihoyasida o'z qo'li bilan tartib bergan kitobiga nega yuqoridagi maqolani kiritgan ekan? Bu bilan muallif yarim asrlik ijodiy faoliyati haqida kitobxonlarga ijobiy hisobot berishi barobarida zamonadoshlarining kelajak avlod oldidagi mas'uliyatini yana bir bor eslatmoqchi bo'lgandir balki. Zero, kelajak bugundan boshlanar ekan, avlod kun mas'uliyati bughungi katta yoshli avlod zimmasidadir.

Axborot asrida yashayapmiz. Bugunga kelib, axborot qurolga, xavfsizlikning muhim omiliga aylandi. Qisqasi, shiddat bilan o'zgarayotgan zamon, globallashuv,



axborot texnologiyalarining mislsiz taraqqiyoti katta imkoniyatlar taqdim etishi bilan birga, mafkuraviy kurashlarni ham kuchaytirdi. Internet ulkan axborot muhorabasi maydoni bo'ldi. Bu maydonda it egasini, mushuk bekasini tanimayotgani ham haqiqat.

Bunday axborot talato'pda har bir millat uchun o'z ma'naviy qiyofasini saqlash, ma'rifiy dunyosini, azaliy qadriyatlarini muhofaza qilish birlamchi ahamiyat kasb etmoqda.

Yaqin-yaqinlarga cha fuqarolarimiz o'ziga kerakli, jamiyat hayoti bilan bog'liq axborotlarni gazeta, jurnal, radio va televideniye orqali olardi. Bosma nashrlar kirib bormagan xonadon yo'q edi hisob. Bolalik va o'smirlik davrimizda “G'uncha”, “Gulxan”, keyinchalik “Yoshlik”, “Sharq yulduzi” jurnallariga obuna bo'lardik.

Internet daromad manbaiga aylangani bor gap, daromadning miqdori lavhaning necha marta ko'rilgani bilan bog'liqligi ham ma'lum. Pul ishlash ilinjida ayrimlarning hech narsadan tap tormayotgani esa o'ta axloqsizlik, kechirilmas hodisadir.

Obunasini ko'paytirish ilinjida biri chiqib, “Xotinim qiz tug'sa, javobini beraman!” desa, boshqasi “otasini kaltaklashi mumkinligi” haqida baralla gapirmoqda. O'zbek tiktoklarining qilg'i, og'zidan chiqayotgan sharm-hayosiz gaplarga ilon po'st tashlaydi. Qani qadriyat, qani uyat, andisha?

“You Tube” videoxostingida “Kostolom Uzbekistona” nomli kanal bor. Uni Mixail degan rossiyalik rus yigit yuritadi. Kanalda o'zbek millati, urf-odatlar, bag'rikengligi haqida lavhalar ko'p. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi yillarida Rossiyadan O'zbekistonga evakuatsiya qilinganlarning farzandi yoki nabirasini topib, ularning o'zbek xalqidin minnatdorigi aks etgan intervyulariga keng o'rin beradi. Rossiyada ishlab yurgan yurtdoshlarimizga yordam ko'rsatib keladi. E'tiborlisi, Mixail o'z kanalida harom narsalarni namoyish etishdan andisha qilishini aytdi. Uning lavhalarini ko'rib, o'zimizning qarok'o'z blogerlar ham o'shanday bo'lsa edi, millatimiz, tariximiz, urf-odatlarimiz haqida e'tiborli chiqishlar qilsa edi deb orzu qilasan kishi.

Barchasi deya olmaymiz-u, lekin ayrim “o'zimiznikilar” buning teskarisini qilmoqda. Azaliy qadriyatlarimizga yot — er-xotin, qaynota-kelin, yoshlar o'rtasida bo'lgan yoki bo'lmagan xiyonat, fahsh hamda turli ig'vo ular “ijodiy faoliyatida” ustuvor ahamiyat kasb etadi. Andisha va uyatni bir chetga yig'ishtirib, moddiy manfaat ilinjida boshqalarning fojiasi ommaga oshkor qilinayotgani xususida faqat afsus bilan gapirish mumkin.

Masalaning o'ta og'riqli jihati, birinchidan, qadriyatlarimizga yot axborotlar yoshlarimizga salbiy ta'sir ko'rsatayotganida bo'lsa, ikkinchidan, bizning bunga tomoshabin bo'lib turganimiz. Ko'pchiligimiz menga nima, degan befarq munosabatda...

Vaholanki, ming yilliklarga borib taqaluvchi, asrlar sinovidan, ota-bobalarimizdan o'tib kelayotgan qadriyatlarimiz topilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. O'zbekona muomala, andisha, hurmat, bir so'z bilan aytganda, o'zligimizga, yoshlar tarbiyasiga bunday munosabatda bo'lishga haqqimiz yo'q!

Bir ziyoli va taqvodor ukamiz oila, farzand tarbiyasi borasidagi suhbat asnosida o'n to'rt yoshga to'lib-to'lmagan o'g'lini uning telefoniga fahsh aks etgan videolavhani adashib tashlab yuborganini gapirib, ko'ziga yosh olib dedi: “Bolam bu yoshda buni ko'rishi kerak emas edi, u ma'naviy jarohat oldi, buni endi qanday tuzatib bo'ladi?!”

Ajdodlarimiz avaylab-ardoqlab kelgan qadriyatlarimiz — sharqona sharm-hayo, uyat, or-nomus begonalashib borayotgani sabablari nimada, ayrim yoshlarimiz bunday “madaniyat”ni qayerdan o'rganmoqda?

Albatta, ota-onasidan emas, internet va ayrim “media yulduzlar ijodi” hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinayotgan bema'no turli teleseriallar oqibati bu.

Davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasi hamda zamonlarda ham muhim va dolzarb bo'lib kelgan, ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala, haqiqatan, hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda, deya bejiz ta'kidlagani yo'q.

Darhaqiqat, yoshlarimizning ko'ngil mulkiga, dunyoqarashiga jarohat yetkazish, axborot texnologiyalari orqali tarqatilayotgan, milliy qadriyatlarimizga yot turli-tuman hayosizlik, ig'vo, jaholat, zo'ravonlik kabi illatlar singdirilishi va shu yo'l bilan ularning ongi zaharlanishining oldini olish masalasi bugun nihoyatda dolzarb bo'lib qoldi.

Internet va ommaviy axborot vositalari orqali ma'naviyatimizga qilinayotgan tajovuzlardan yoshlarni asrash choralari hozir ko'rmasak, ertaga kech bo'ladi. Bugun e'tibor qilmasak, ertaga farzandlarimiz to'g'ri gapga kirmay qo'ysa, jinoyat ko'chasiga kirib ketsa, keyin dod deganimizdan, boshqalarni ayblaganimizdan foyda yo'q.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy masalalarni hal etishning o'z tartib va qoidalari bor. Deylik, kimningdir huquqi boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan buzilsa, bu borada huquqi buzilgan shaxs tegishli tartibda vakolatli organga og'zaki yoki yozma murojaat qilishi mumkin. Murojaat amaldagi qonun doirasida ko'rib chiqiladi va tegishli tartibda hal etiladi.



Jamiyatdagi munosabatlarni to'g'ri, odilona tartibga solish maqsadida qonunlar qabul qilinadi va unga rioya qilish barcha uchun majburiydir.

Xalqimizda “Qochgan ham, quvgan ham xudo deydi”, degan maqol bor. Demochimizki, har kim o'zini haq deb biladi. Aqar ayni masalada biror taraf o'zini nohaq deb bilsa, o'rtadagi nizo bartaraf bo'ladi. Nizo kelib chiqdimi, u har tараflama o'rganilishi va qonun doirasida hal etilishi lozim va bunga faqat vakolatli organlar haqli.

Kezi kelganda qayd etib o'tish lozimki, amaldagi protsessual qonunchilik talabiga ko'ra, pulli yuridik yordam ko'rsatishga faqat tegishli litsenziyasi mavjud advokatlarga shartnoma asosida boshqa shaxs manfaati uchun ish yuritish vakolatiga ega.

Bizdagi aksar blogerlar ochiqchilik va oshkoralikdan birgina o'z manfaatlari yo'lida foydalanmoqda. Ulardan ayrimlari yul yashirib ham o'tirgani yo'q, bitta chiqish qilishga qancha pul olayotganini ham aytmoqda. Hatto fuqaro bilan shartnoma tuzib, shartnoma asosida pul olib, “qonuniy” ishlayotganini ro'kach qilayotganlari ham bor. Zero, manfaat ustun bo'lgan joyda xolislikka putur yetishi isbot talab etmaydigan aksioma.

Ilon zahri aslida, og'u bo'lsa-da, to'g'ri ishlatilganda doriga aylanadi. Internet bugun ijtimoiy hayotning ajralmas qismi. Yoshlarimiz orasidan yetuk dasturchilar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mutaxassislari yetishib chiqmoqda. Buni mamnuniyat bilan

e'tirof etgan holda, bunday imkoniyatdan g'arazli maqsadlarda foydalanishning jiddiy oqibatlarini haqida o'ylash fursati yetganini ham ta'kidlashimiz lozim.

Bugun internet saytlari orqali tarqatilayotgan axborotni senzura qilib yoki taqiqlab bo'lmisligi ma'lum. Yoshlarga “Internetga kirma, keraksiz ma'lumotlarni ko'rma”, deyishimizning ham foydasi yo'q.

Unda muammo nimada? Birinchidan, muammo blogger (*muammoli masalaga jamoatchilikning e'tiborini qaratsa mayli*) masalani o'zicha hal qilishga kirishib ketayotganida. Ikkinchidan, blogerlik pulli xizmat ko'rsatish, degani emas. Uchinchidan, blogerga turli masalani hal qilish yoki hal qilish yo'lida kimlarga dir ta'sir etish vakolati berilmagan.

Bugun internet resurslaridan foydalangan holda ma'lumot tarqatayotgan ayrim blogerlar amaldagi qonunchiligimizda zo'ravonlik va fahshni targ'ib qilganlik, inson sha'ni va qadr-qimmatini kamstish, haqorat uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilanganini unutmasligi, e'lon qilayotgan axborotlarining salbiy ta'siri va huquqi oqibatlarini borasida jiddiy o'yab ko'rishi lozim.

Buning uchun, fikrimizcha, jamiyatda mediasavodxonlik va huquqi madaniyatni oshirish, yot g'oya, zo'ravonlik va fahshdan iborat axborotlarga nisbatan, salbiy axborot qaysi internet saytida namoyish etilgan bo'lsa, aynan

o'sha sayt orqali unga tegishli munosabat bildirish bilan qarshi immunitetni shakllantirish lozim.

Yuqorida qayd etganimizdek, davlat tomonidan yoshlarimizga bog'cha yoshidan boshlab, to ilyaga yetgunga qadarg'amxo'rlik ko'rsatish, viloyi, bilimni etish, sodir tarbiyasi bilan borasida jamiki lozim ishlar qilinmoqda.

Ota-ona va jamoatchilik zimmasida qolayotgan burch, vazifa farzandlar yurish-turishidan ogoh bo'lish, ular tarbiyasi bilan nomiga emas, chin ma'noda mintazam shug'ullanishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Ushbu masalaga muayyan idora yo tashkilotning vazifasi deb emas, butun jamiyat a'zolari, ziyolilar, ota-onalarning oldidagi muhim vazifa deb qarash kerak.

...Qabri nurga to'lsin, O'tkir Hoshimovning maqolasiga qayta-qayta ko'z yugurtirib, o'yga cho'maman. Yuqorida qayd etilgan holatlarga uning nazari bilan qarashga harakat qilaman... Nazarimda, O'tkir aka bugungi kunda ham ertaga avlodlarga nima deymiz deb savol berayotgandek tuyulaveradi...

Darhaqiqat, hozirda aksariyat yoshlarimiz asosiy ma'lumotni internet saytlaridan olayotganini bila turib, ularni qadriyatlarimizga yot g'oya va tushunchalar, fisq-u fasod, sharm-hayosizlik targ'ib qilinaayotgan axborotlar o'rtasiga tashlab qo'ysak, bunga munosabat bildirimasak, faqat salbiy ma'lumotlardan bahra olib voyaga yetayotgan farzandlarimiz tarbiyasiga, dunyoqarashi shakllanishiga befarq qararak, asriy qadriyatlarimizga putur yetsa, ertaga avlodlarga nima deymiz?





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

BIR TAJRIBA MOHIYATI

YOXUD SAYXUNOBODDAN BOSHLANGAN EZGU TASHABBUS DOIRASIDAGI MULOHAZALAR

Bozorboy BERKINOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori,
Institutsional va iqtisodiy tadqiqotlar markazi
ilmiy rahbari

Tahlil

Prezidentimiz o‘tgan yil 14-yanvarda Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumaniga tashrifi davomida Ittifoq mahallasi hududida imkoniyatlardan foydalanib, tomorqadan mo‘l hosil yetishtirish, uni xalqqa yetkazib berishda jonbozlik ko‘rsatib, yuqori samaraga erishish mumkinligini tuman aholisi e‘tiboriga havola qildi. Ushbu tumanda amalda oshirilayotgan tajriba natijalarini davlatimiz rahbari boshqa viloyatlarda ham keng joriy qilish zarurligini ta’kidlab, buning uchun qanday yo‘l tutish borasida aniq hisob-kitoblar bilan asoslangan topshiriqlar bergandi.

Sayxunobod tajribasi, deya e’tirof etilgan mazkur tashabbus bugun nafaqat mahallalar va qishloq hududlar, balki butun iqtisodiyotimiz inklyuziv rivoji uchun ham muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega katta harakatga aylandi. Davlatimiz rahbarining juda qisqa vaqt ichida Sayxunobod tajribasini har bir mahallaga joriy qilishni qat’iy belgilashi tajribaga “yashil mahalla”ni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy modeli sifatida qarash imkoniyatini beradi.

Keng ko‘lamli tavsifga ega bo‘lgan ushbu tajriba modeli nafaqat mamlakatimiz ichida, balki xorijiy davlatlar hududlarining kichik tuzilmalarida ham qo‘llashga yo‘l ochadi. Ya’ni Sayxunobod tajribasi ishsiz odamlar bandligini ta’minlash, kambag‘allarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, daromadlarini oshirishning asosiy maqsadi va manbaga aylandi. Shu ma’noda, mazkur tashabbusni butun mamlakatimiz bo‘ylab keng quloq yozayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonidagi haqiqat, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Binobarin, uning zaminida mehnatkash xalqimizni ish bilan to‘liq band qilish orqali farovon hayotni ta’minlash yotadi.

Sayxunobod ilgari Mirzacho‘l tekisligida joylashgan hosilsiz hudud edi. Yerlar o‘zlashtirilgach, hozir aholisi zich yashaydigan obod dehqonchilik va chorvachilik tumaniga aylandi. Tumaning asosiy boyligi yer-suyu va mehnatkash xalqidir. Yer insonni boqadi. Undan to‘g‘ri foydalanish odamni esa boy qiladi.

Mamlakatimiz aholisi 37 million kishidan oshdi. Bu ishlayman, yaxshi yashayman deganlar safi ham tobora kengayib borayapti, degani. O‘rganish va tadqiqotlarga ko‘ra, mahallalardagi 20-25 foiz aholi o‘z biznesi

bo‘lishini istaydi. Buning uchun bo‘lg‘usi tadbirkorga dastlab o‘z mablag‘i yoki imtiyozli bank krediti hamda “mahalla yettligi” ko‘magi, qolaversa, tijorat bankining xayrixohlik bilan

gapirib, tadbirkorlik rivojini yangi bosqichga ko‘tarishning ustuvor 5 ta yo‘nalishini asoslab bergan edi. Unda mahalla tizimida kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish orqali yuqori daromadli yirik korxonalarni ko‘paytirish, yangi bozorlarga sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar bilan kirish, qishloq xo‘jaligida klaster tizimiga o‘tish muhim tashabbus sifatida ilgari surilgandi.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash, uning jamiyatdagi rolini tubdan oshirish, aholi muammolarini hal etish va mahalla boshqaruv tizimini takomillashtirish hukumatimiz, shaxsan Prezidentimiz diqqat-markazida turibdi. Shularni hisobga olsak, bugungi kunda kichik biznes mahallalarga amalda yangi muhit olib kirmoqda. Odamlarni mehnatga undab, farovon hayot kechirishga bo‘lgan ishonchini mustahkamlamoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda 9 mingdan ziyod mahalla mavjud. Sirdaryo viloyatida esa ular 236 tani, uy xo‘jaligi a‘zolari soni 173,3 ming nafarni tashkil etadi. Uy xo‘jaliklarining 57 foizida 5



yondashuvi zarur. Shu bois, bugungi kunda hamma viloyat, tuman, shahar va mahallalar boshqaruv tizimlarida bunga munosib e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz tadbirkorlar bilan 2023-yilgi ochiq muloqotida iqtisodiy taraqqiyotimizning yangi davrini boshlab beradigan muhim tashabbuslar haqida

va undan ko‘p kishi istiqomat qiladi. Respublika miqyosida bu ko‘rsatkich 61,4 foizga teng. Ushbu raqamlar Sirdaryo viloyati oilalarida yashovchi aholining o‘rtacha kattaligi qisqarib borayotganini ko‘rsatadi.

Viloyatda aholi jon boshiga 2023-yilda umumiy daromad 16,8 million so‘mga, real



daromad esa 15,3 million so‘mga teng bo‘lgan. Bu ko‘rsatkichlar 2022-yildagiga nisbatan son ravishda 2,2 va 2,1 million so‘mga oshgan. Ammo respublika bo‘yicha aholi jon boshiga umumiy daromadni ushbu viloyat bilan solishtirsak, 2023-yilda 3,2 million so‘mga, real daromad esa 2,9 million so‘mga ko‘pligi ayon bo‘ladi.

Tajriba olib borilayotgan Sayxunobod tumanida 19 ta mahalla bor. Ularning har biri bittadan kichik traktorga, 4 donadan kultivatorga ega. Mahallada 1 sotix yerdan 1-2 million so‘m daromad olish mezon tariqasida qabul qilingan. Tomorqa yerlarni haydash va ekin ekish xizmatlari agronomlar bilan birga amalga oshiriladi.

samarali foydalanish, dehqonlar uchun bozor topishga ko‘maklashish, tadbirkorlarni sifatli urug‘ va dori vositalari bilan ta’minlash, ularning eksportiga amaliy yordam berish, yer munosabatlarni shakllantirish kabi muhim islohotlarni o‘z ichiga oladi.

Mamlakatimizda Sayxunobod tajribasi dastlab aholisi zich yashovchi Namangan, Andijon, Farg‘ona viloyatlarida keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, endi butun respublika bo‘ylab ommalashmoqda. Buni Buxoro viloyatida bajarilayotgan ishlar misolida ham ko‘rish mumkin. Sayxunobod tajribasi asosida Buxoro viloyatida har bir mahalladan kambag‘al, daromadli mehnat bilan shug‘ullanishga ishtiyoqi bor 7 tagacha nochor xonadon tanlab olingan. Ularga hududdagi yetakchi tadbirkorlarni jalb qilgan holda layoqatiga mos ravishda chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, quyonchilik, baliqchilik kabilar bilan birga tomorqa xo‘jaligini rivojlantirish, shuningdek, 3 sotixli issiqxonalar tashkil qilib, oilalarning bir yilda 50 million so‘mdan oshirib daromad topishiga ko‘maklashish chora-tadbirlari ko‘rilgan.

Mahallalarga biriktirilayotgan tijorat banklari mas’ullari joylardagi hokim yordamchilari ko‘magida saralangan xonadonlarda daromad manbaini yaratish, tomorqa madaniyatini shakllantirish, sabzavot-poliz mahsulotlari yetishtirish, ko‘chat o‘tqazish, obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, boshqa xizmatlar ko‘rsatishga shaxsan javobgar hisoblanadi. Ushbu tahlillar Sayxunobod tajribasini “yashil mahalla” tizimi sifatida inklyuziv rivojlantirish imkoniyatlarini kengligi va davlat tomonidan tajriba keng qo‘llab-quvvatlanayotganini ko‘rsatadi.

Mahalla tizimini har tomonlama rivojlantirish davlatimiz rahbari farmonlari, qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasi rasmiy hujjatlarida belgilab qo‘yilgan institutsional qoida hamda mezonlarga asoslangan. Bular xorijiy tajribalar, shuningdek, Sayxunobod tajribasi bo‘yicha

Shuningdek, tumanda eksportga ko‘maklashuvchi korxona ochilib, ustaviga 1 milliard so‘m kiritilishi rejalashtirilgan. Bu korxona 4 ming xonadonga reshenosil qovoq, mosh, loviya, rozmarin, brokoli, timyan urug‘ini yetkazadi, yetishtirilgan mahsulotni sotib olib, eksport qiladi.

Sayxunobod tajribasi yerdan yanada

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Yangicha yondashuv

Jamiyatdagi iqtisodiy barqarorlikning bosh omili adolatli muhit bilan o‘lchanadi. Ya’ni yaratilgan qulay muhit ortidan ishbilarmonlar faoliyati kengayib, o‘z ishidan manfaatdorligi oshadi. Davlat esa ulardan tushgan soliq va boshqa tushumlarni ishsizlikning oldini olish va ichki bozorning jahon bozoriga qaramligini kamaytirish, boshqa tarmoqlarni rivojlantirishga yo‘naltiradi.

Yaqin yillargacha tadbirkorlikni boshlagan, ammo ishi oxiriga yetmay qarzga borgan yoki savdo-sotiqdagi to‘siqlar, qo‘shimcha qiymat solig‘ini ololmay kunora soliq idorasi eshigida sang‘ayib, ham vaqtini, ham naqdini yo‘qotganlar haqida ko‘p eshitganimiz.

Yoki buning aksi o‘laroq, “yashirin iqtisodiyot”ning, ya’ni davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to‘lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, faoliyatlar ham uchrab turadi. Bunday munosabatlar faqat ayrim kishilar va guruhlar manfaat keltiradi. Shuning barobarida iqtisodiy barqarorlikka putur yetkazar, davlat idoralarga ishonchsizlikni paydo qiladi. Tadbirkorlar ham turli yo‘llar orqali soliqlardan qochish, hujjatda ishchilarning sonini kamaytirish kabi qing‘ir yo‘llardan borishga harakat qiladi. Alaloqibat o‘zi qilgan qilg‘iliqlarning badalini to‘lardi.

Bugun yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, biznes uchun qulay sharoit yaratish hamda ishbilarmonlar faoliyatiga qaratilgan har qanday to‘siqni olib tashlash borasida ildam qadamlar tashlanmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbarining 2024-yil 23-yanvardagi “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qator muammolarga munosib yechim bo‘ldi.

Jazolovchi emas, rag‘batlantiruvchi usul kerak

Aksariyat rivojlangan davlatlarda tadbirkorlar faoliyati elektron shakllantiriladi. Ya’ni bunda soliqlar va boshqa to‘lovlarni

HAR KIM EKKANINI O‘RADI

ODILONA MUHIT QAROR TOPISHIGA XIZMAT QILAYOTGAN REYTING

o‘z vaqtida to‘lash, xodimlarni ishga olishda ijtimoiy holati — kam ta’minlagani, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘lganlarni ishga olish, eksport va import masalalarini inobatga olinadi. Reytingda past natija qayd etgan tadbirkorlarga davlat tomonidan chora ko‘riladi.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi joriy etilganiga bir yildan oshdi. U qanday ishlamoqda? Ba’zilar bu faqat davlat manfaatlarini himoya qilishi haqida gapirsa, ayrimlar inson omili orqali reytingdagi o‘rinni almashtirish mumkinligi to‘g‘risida aytmoqda. Hatto reytingdagi o‘rni quyida bo‘lsa, jazo chorasini ko‘rilishidan xavotirda yurgan yuridik shaxslar ham uchrab turibdi.

— Reyting Soliq qo‘mitasi tomonidan onlayn shakllantirilib, Savdo-sanoat palatasining rasmiy veb-saytida e’lon qilib borilmoqda, — deydi Soliq qo‘mitasi boshqarma boshlig‘i Komil Sayidov. — Shuningdek, tadbirkorlar o‘zining mobil ilovasi orqali reytingdagi ko‘rsatkichlarini bilib olishi mumkin. Avvalo, bu tizim tadbirkorlik subyektlarini jazolash emas, balki rag‘batlantirish uchun xizmat qiladi.

Ya’ni tadbirkorlik subyekti quyidagidek o‘rinda tursa, unga hech qanday jazo qo‘llanmaydi, aksincha yuqori o‘rinda tursa, rag‘batlantiriladi.

Endi reyting haqida batafsil to‘xtalsak. Reytingning o‘ziga xos mezon va tartib-tamoyillari ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyat davri, to‘lov intizomi, aholi bandligidagi o‘rni va ish haqi kabi 23 ta mezon asosida 4 toifaga: yuqori, o‘rta, qoniqarli, quyi darajalarga ajratiladi. Toifaga ajratish soliq, adliya hamda sud organlari ma’lumotlari orqali shakllanadi.

Mezonlarning ahamiyati nimada? Aytaylik, oldin tadbirkorlar, qog‘ozda bir-ikkita ishchisi bor-u, amalda o‘nlab odamni kam oylik ish haqi orqali mehnatga jalb qilardi. Yomoni ularning haq-huquqlari tadbirkorning ixtiyorida edi.

Birgina misol. O‘tgan yili qishloqda yashovchi bir tanishim shaharga ishlash uchun kelgandi. Mebel sexiga ishga kirdi. Ish vaqti, oylik borasida tashkilot rahbari bilan og‘zaki kelishgan. Ammo faoliyat davomida belgilangan vaqtdan ko‘p ishlagan. Ustiga ustak, uch oylik ish haqini ham ololmagan.



Tadbirkorning ustidan shikoyat qilay desni, rasmiy ishga kirmagan, oxir-oqibat pulni ololmasligiga ko‘zi yetib, qishloqqa qaytdi. Bu kabi holatlar ko‘p uchrab turardi. Aksariyat holda viloyatdan ish izlab kelganlar yotoqjoy uchun ham chumchuq rizqidek oylikka ko‘nib yashashga majbur bo‘ladi.

Reytingda bu kabi holatlarning oldini olish nazarda tutilganmi? U ishbilarmonlarga qanday imkoniyatlar berdi?

Yuqori o‘rinda bo‘lish imkoniyatni oshiradi

Endi ishchilar soni hamda ularga berilgan oylik maoshga qarab ham tadbirkor reytingda ball olishi va qo‘shimcha imkoniyatga ega bo‘lishi mumkin. Agar korxona ishchilar oyligini oshirsa, ball ham ko‘payadi.

Shuningdek, reytingi yuqori tadbirkorlar, xususan, “AAA” ko‘rsatkichiga ega ishbilarmonlar uchun barcha soliq tekshiruvlari bekor qilinadi. Yana bir muhim jihati shuki, qo‘shimcha qiymat solig‘i ortiqcha tekshirulvirsiz 1 kunda qaytarib beriladi.

Tadbirkor uchun eng muhim vosita — pul. O‘z vaqtida to‘g‘ri yo‘naltirilgan mablag‘ katta foyda keltirishi mumkin. Ba’zan biznesda mablag‘ yetishmasligi holati uchrab qoladi. Oqibatda ishda oqsashlar kuzatiladi. Endi yuqori reytingdagi tadbirkorlar o‘z vaqtida

qo‘shimcha qiymat mablag‘ini qaytarib olib, faoliyatini kengaytirish uchun yo‘naltirish imkoniga ega bo‘ladi.

— Reyting tizimi 2024-yil 1-fevraldan ishga tushirilganida ko‘pchilik tadbirkorlarda unga nisbatan ishonchsizlik bor edi. Ammo keyinchalik bu tizimning shaffof, inson omilidan xoli va ishbilarmon uchun manfaatli ekanini bilganlar yuqori reyting olish uchun harakat qila boshladi, — deydi tadbirkor Jamshid Ismatullayev. — Biz ham ertalab ishni boshlashdan avval yig‘ilish o‘tkazamiz. Reytingda qaysi mezonlarda oqsayotgan bo‘lsak, o‘sha jihadni to‘g‘rilashga harakat qilamiz.

Bundan tashqari, tizimda yuqori ball olgan ikki va undan ko‘p tadbirkorlik subyektlari davlat aktivlari, ya’ni yer sotib olishda boshlang‘ich to‘lovning 35 foizini to‘lasa, qolganini 7-yil mobaynida teng bo‘lib to‘lash imkoniga ega bo‘ladi. Yana “A” va undan yuqori pozitsiyadagi tadbirkorlik subyektlariga ham qo‘shimcha qiymat solig‘idan boshqa soliq turlarining ortiqcha to‘langan summasi 3 kunda qaytarib beriladi. Shuningdek, tovarlarni import qilish va sotishda qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘jona va soliq organlarida o‘zaro hisobga olinadi.

Adolatli tizim o‘z mevasini bermoqda. U ishga tushirilganda yuqori reytingda 700 dan oshiq tadbirkorlik subyekti bo‘lgan bo‘lsa, 6 oyda 8000 dan oshgan. Bu shuncha tadbirkor

yaratilgan shart-sharoit kabi qator omillarni o‘z ichiga oladi. Mahallada aholining demografik tarkibi va o‘sishi, inson kapitali samarasi, aholi bandligi hamda kambag‘allikni qisqartirish bilan bog‘liq tadbirkorlik faoliyatiga investitsiya kiritish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish, mahalla miqyosida shartnoma munosabatlarni kuchaytirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda qonunchilik talablarini so‘zsiz bajarish shular sirasiga kiradi. Ularda mahallaning rivojlanish jarayoniga bevosita ta’sir etish barobarida “Kambag‘allikdan farovonlik sari” loyihalar ijrosini ta’minlash ko‘zda tutilgan. Buning uchun tuman (shahar) larda inklyuziv o‘sishni ta’minlovchi ijtimoiy va infratuzilma loyihalariga 2025-yilda davlat budjetidan 1 trillion so‘m ajratish belgilangan.

“Biznesga birinchi qadam” dasturi orqali vazirlik va idoralar bilan birgalikda kambag‘al oilalarga 2025-yilda 15 trillion so‘m kredit ajratiladi.

Mahallalar rivoji, asosan, to‘rt jihatga bog‘liq. Birinchisi, o‘sha hududdagi mehnatkash, o‘z ishini yaxshi biladigan insonlar bo‘lsa, ikkinchisi vus resurslaridir. Uchinchisi sarmoya, to‘rtinchisi esa, albatta, hududda tadbirkorlar mavjudligi. Ularning har biri mahalla iqtisodiyotining tayanch nuqtalaridir. Sayxunobod tumani tajribasida ana shu fundamentalardan samarali foydalanishga asosiy e’tibor qaratilmoqda.

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturida kambag‘al oilalar ro‘yxatini tuzish, oilalarning kambag‘allikka tushish sabablarini bilish va shu asosda tuman (shahar) mahallalari kesimida oilalarni kambag‘allikdan chiqarish, shunday oilalar ijoiybiy tajribalarini ommalashtirish va rag‘batlantirishga eng ustuvor tashkiliy vazifa sifatida qaraladi. Shu ishlar tufayli joriy yilda mamlakatimiz bo‘yicha 2024-yildagiga qaraganda 2 barobar ko‘p aholi kambag‘allikdan olib chiqiladi. Rahbarlarni 5 tadan kambag‘al oilaga biriktirish 2025-yilda 2024-yildagidan 2 karra yoki 70 mingdan 140 mingtagacha oshadi. Ushbu chora-tadbirlar Sayxunobod tajribasiga tayanib keng rivojlanishni tezlashtirish hamda har bir oilaning iqtisodiy barqaror yashashini ta’minlashga yo‘l ochib beradi.

O‘zbekistonda keyingi yillarda bosqichma-bosqich olib borilgan islohotlar tufayli fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi — mahallaning xalq bilan davlat o‘rtasida ishonchli ko‘prik bo‘lishi amalda ta’minlandi. Buning uchun mahallalar faoliyati izchil qo‘llab-quvvatlanayapti. Ular manfaati himoya qiliyapti. Mahalla tizimini rivojlantirishning qonunchilik asoslari hamda institutsional mexanizmlari ishlab chiqilib, amaliyotga kiritilmoqda.

Qishloq mahallalarini qo‘llab-quvvatlash, aholi yashash sharoitini yaxshilash va daromadlarini ko‘paytirishga qaratilgan hamda tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochish uchun Sayxunobod tumanida o‘tkazilayotgan agrosanoat tajribasi munosib natijalarga yetaklayotgani bilan ahamiyatli.

yuqorida ta’kidlangan imkoniyatlardan foydalana olish huquqiga ega bo‘ldi, deganidir.

Davlatimiz rahbari 2024-yil 20-avgustda tadbirkorlar bilan ochiq muloqotda “Tadbirkorlik reytingida “A” va “B” — yaxshi toifaga kiruvchi korxonalar 91 mingga ko‘paydi, yana 170 ming korxona “D” — eng yomon toifadan chiqarildi.

Buning hisobiga soliq tekshiruvlari o‘tgan yilga nisbatan 2 karra — 85 mingtadan 48 mingtaga, jumladan, kameral tekshiruvlar 3 karra — 38 mingtadan 12 mingtaga qisqardi. Shu davrda yirik soliq to‘lovchilar tushumlari 10 foizga, viloyat darajasidagi korxonalarda 25 foizga, tuman tadbirkorlari to‘layotgan soliqlar 40 foizga o‘sdii, degandi.

Bugungi geosiyosiy voqealar, iqtisodiy depinsishlar, nizolar davlatlarning iqtisodiy barqarorligiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Ya’ni doimiy bozorlarning urush va boshqa sabablar bilan yo‘qotilishi ishbilarmonlarning mahsulotiga xaridor topolmaslik holatlarini oshirib yubordi.

— Reytingning yana bir qulay jihati ishonchli hamkor topish bilan bog‘liq. Deylik, bizga kimdir birga ishlashni taklif qiladi, ya’ni mahsulotini olib keladi. Shunda birga ishlaylikmi, mahsulot olib, mahsulot sotaylikmi, degan savollar yuzaga keladi, — deydi tadbirkor Zafar Hoshimov. — Reyting orqali hamkorlikni taklif qilgan tadbirkorning ma’lumotlari bilan tanishsa bo‘ladi. Ma’lumotlarga, ya’ni korxonaning darajasiga qarab u bilan ishlash yoki ishlamaslik haqida xulosa chiqaramiz. Qulay jihati, bu — investorga qo‘shimcha va ishonchli ma’lumot. Umumiy mezon orqali o‘lchaganda ularning hamma afzalligi yuzaga chiqadi.

Ilgari kredit, bozor topish, infratuzilma bilan bog‘liq muammolar, tinimsiz tekshiruvlar sababli aksariyat yangi tadbirkorlar faoliyati birinchi yilning o‘zidayoq to‘xtab qolar edi. Endi tadbirkorlar faoliyatiga soliqchilar emas, elektron tizim baho beradi. Inson omili cheklanishi ortidan sohada ochiqlik va shaffoflik ta’minlanadi. Bu esa korruptsiyaviy holatlarning oldini olish, shuningdek, “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirishga xizmat qiladi.

Xalqimiz orasida “Harkimekanini o‘radi” degan naql bor. Bu odada ekin ekish va hosil yig‘ishtirib olish bilan bog‘liq bo‘lsa-da, odamlarning hayoti davomida qilgan amaliga nisbatan ham qo‘llanadi. Demak, iqtisodiyot faqat tartib-intizom joriy etish bilan rivojlanib qolmaydi. Balki ishbilarmonlar va davlat o‘rtasidagi manfaatlar to‘g‘ri yo‘naltirilsa, tadbirkorlarning haq-huquqlari himoya qilinsa, o‘shir, rivojlanish kuzatiladi. Halollik ortidan kelgan rizq barakali bo‘ladi.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yuksalish pallasi

YANGI BAHOLASH TIZIMI

IJODKORLIK VA IZLANUVCHANLIKNI TA’MINLAYDI

Jamiyatda bo‘layotgan tarixiy o‘zgarishlar yangilangan ta’lim dasturini chetlab o‘tishi mumkin emas. Kelajak avlodga qanday ta’lim tizimlarini taqdim etish, bolalar muvaffaqiyatga erishishi uchun nimani o‘rganishi, ta’lim berishning samarali usullari va ularni baholash qanday bo‘lishi kerak, degan savollar bugun kun tartibida. Yangi mezonlarga asoslangan baholash tizimi shu savollarning barchasiga javob topishga imkon beradi.

Mazkur baholash tizimi o‘quvchilarning tanqidiy, ijodiy fikrlash, muloqot qilish hamda hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini tekshiradi. Albatta, o‘quvchilarning bu ko‘nikmalari baholangandan keyin pedagoglarning ham darslarga, bilim berishga yondashuvi o‘zgaradi. Ta’lim jarayoni o‘quvchilarning yuqorida sanab o‘tilgan ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. O‘z-o‘zidan darslarda turli faol va interfaol usullardan foydalanish ehtiyoji tug‘iladi. O‘quvchilar hamkorlikda faoliyat yuritib, loyihalar ustida ishlaydi. Bu orqali ularda samarali muloqot, bajarilayotgan loyihalarga ijodiy yondashuv ko‘nikmalari shakllanib boradi.

Ayni damda bu baholash tizimida faoliyat yuritayotgan maktablardagi o‘quvchilarning loyiha va amaliy ishlari ko‘rib, ularning bilimida o‘sish, ijodiy va tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash va muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllanayotganiga guvoh bo‘lish mumkin.

Mezonlarga asoslangan baholash tizimi qo‘llanishining yana bir afzalligi — o‘quvchilarni xalqaro PISA tadqiqotlariga tayyorlash. PISA testlari maktab o‘quvchilarning haqiqiy hayotda kerak bo‘ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta’lim tizimining bu o‘zgarishlarga qanchalik

moslashayotganini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Yangi baholash tizimi kirib kelishi pedagog va o‘quvchilar faoliyatini tubdan o‘zgartirib yubordi. Pedagog bilim beruvchi emas, balki bilimni mustaqil egallashga yo‘naltiruvchi shaxsga aylandi. Ular sifatli natijalarga olib keladigan mezonlar asosida o‘quvchilarni baholash, o‘qitish sifatini oshirish, ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir o‘quvchi uchun mashg‘ulot hajmini rejalashtirish, turli baholash usullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. BSB (bob bo‘yicha summativ baholash) va CHSB (chorak bo‘yicha summativ baholash) natijalarini tahlil qilib, o‘quvchilar yoki o‘zlari tomondan yo‘l bo‘yilgan xato va kamchiliklarni tuzatish, bo‘shliqlarni to‘ldirishi mumkin.

O‘quvchilar ta’lim obyektidan (passiv eshituvchi roli) ta’lim subyektiga (ta’lim jarayonining asosiy faoliyat ishtirokchisi) aylandi. Ular kognitiv qobiliyat va fikrlash darajasini oshiradigan turli o‘qitish usullaridan foydalanish, o‘z-o‘zini baholash, mulohazali fikrlash, fikrlarini erkin ifoda etish, bilimlarini namoyish qilishiga imkon yaratildi.

Ota-onalarda esa bolaning bilim darajasi bo‘yicha dalillari bilan tanishish, farzandlarining ta’lim muvaffaqiyatlarini nazorat qilish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Bu baholash tizimida o‘quvchining boshqa o‘quvchi bilan bahosini taqqoslashga hojat qolmadi. Chunki u mustaqil ravishda mezonlar asosida o‘z ishini baholash imkoniyatiga ega bo‘ldi. O‘zining kuchli va zaif tomonlarini taqqoslab, xulosa chiqarib, xato va kamchiliklari ustida ishlashni boshladi.

Yuqori natijalarga erishgan maktablar qo‘shimcha ravishda rag‘batlantirib kelinmoqda. O‘quv yili oxirida 20 foiz eng yaxshi natija ko‘rsatgan maktablar tanlab olingan va ularda ishchi guruhlar tomonidan chuqur tahlil ishlari olib borildi. Mazkur maktablarning muvaffaqiyatli tajribasi o‘rganilib, uni boshqa maktablarga tatbiq etish bo‘yicha choralar ko‘rildi.

— 2023-2024-o‘quv yilida yangi baholash tizimi joriy etilgan 500 ta maktab 2 bosqichli

ushbu maqolani qoraqalpoq tilida ham o‘qish uchun qr-kodni skaner qiling!

2025 o‘quv yilidan boshlab bu tizimga 1500 ta umumta’lim maktabi qamrab olindi. Albatta, bu maktablarga yangi baholash tizimini joriy etishdan avval barcha maktab jamoasiga seminar-treninglar o‘tkazildi.

Seminarlar avval maktab direktorlari, so‘ng direktor o‘rinbosarlari, undan keyin fan o‘qituvchilari uchun kaskad usulda tashkil etildi. Har bir maktabda Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarning biridan jalb etilgan, mezonga asoslangan baholash bo‘yicha tajribaga ega hamda yangi tizimga moslashishda o‘qituvchi va o‘quvchilarga ko‘maklashish vazifasi yuklatilgan metodist va trenerlar birlashtirildi.

O‘quv treninglarida maktab jamoasiga mezonlarga asoslangan baholashning mazmun-mohiyati, BSB va CHSB vazifalarining mazmuni, o‘quvchilar tomonidan o‘planadigan ball ko‘rsatkichlari haqida batafsil ma’lumotlar berildi.

— Maktablarga birlashtirilgan trenerlar tomonidan doimiy ravishda zamonaviy dars metodlari haqida seminar-treninglar o‘tkazilmoqda, — deydi Dilrabo Davidova. — Bu yerda asosan o‘quvchilarning reproduktiv, produktiv darajalari, mulohaza yuritish hamda 4K usuli orqali o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash, muloqot va hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar bilan tanishtirish va amaliyotga tatbiq etish masalalari ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, o‘quvchilar bilan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish, laboratoriya ishlari bajarish va loyihalar yaratish bo‘yicha amaliy topshiriqlar beriladi.

Topshiriqlar o‘quvchilarning yashirin iqtidorini ochildiga, ularni izlanishga, mustaqil fikr yuritib, qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Nazariy bilimlarini sinf oldida gapirib berishga

uylagan bolalarga amaliy ish va loyihalar orqali bor bilimni namoyish etishga imkon yaratadi. Bunday o‘zgarishlar ta’lim sifatini yanada yaxshilashga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Ilm-fan va texnika jadal rivojlanib borayotgan, raqamli manbalar oqimi kuchaygan davrda inson qobiliyati, iste’dodi, o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv orqali o‘qitish ta’lim muassasalarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Shu bois, vaqt va makon kengligida kelajak avlod o‘z maqsadlariga erishishi, keng imkoniyatlardan foydalangan holda erkin va yorqin yashashi uchun ta’lim islohotlari olib borilmoqda. Chunki har bir o‘quvchining idrokiga qarab, ijodkorlik va har tomonlama izlanuvchanlikni ta’minlaydigan yangilangan ta’lim mazmunini tayyorlash zarurati tug‘ilgan edi.

“O‘zbekiston—2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida bilimni baholashning yangi tartibi joriy etilgan maktablar sonini oshirish vazifasi keltirilgan.

Jumladan, 2024-2025-o‘quv yili yakunida 1500 ta umumta’lim maktabida joriy etilgan bilimni baholashning yangi tartibi samaradorligini tahlil qilish, tahlillar natijasida mazkur tartibni yanada takomillashtirish hamda 2025-2026-o‘quv yilidan boshlab yangi baholash tizimi joriy etiladigan maktablar sonini 3000 taga yetkazish ko‘zda tutilgan. Olib borilayotgan ishlar ana shu xayrli maqsadning dehoasidir.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Korrupsiya – jamiyat tanasidagi saraton

Joriy yil 5-mart kuni Prezidentimiz raisligida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, islohotlar hal qiluvchi bosqichga kirayotgan hozirgi vaqtda yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha ishlarga baho berib, kelgusi vazifalarni aniq belgilab olish zarurati barchamizni yanada sergaklantirdi.

ADOLATLI VA FAROVON
HAYOT QURISH ORZUSI



Korrupsiya nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-siyosiy xavf hamdir. U jamiyatning barcha sohasiga kirib borib, rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Shu bois, bugun yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha aniq tizim yaratildi, alohida qonunlar qabul qilindi. Parlament palatalarida mas’ul qo‘mitalar, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash va agentlik tashkil etildi. Eng muhimi, jamiyatda korrupsiya muammosini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadigan ochiq tizim, ochiq muhit yaratilgani, ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining bu boradagi o‘rni va ta’siri ortib borayotgani qayd etildi. Ochiqlik bo‘yicha xalqaro reytinglarda mamlakatimizning o‘rni 138 pog‘ona yaxshilanib, Markaziy Osiyoda 1-, dunyoda 30-o‘ringa ko‘tarildi.

Korrupsiya illati xususida so‘z ketar ekan, asli holo, nasli pok millatimizning buyuk tarixi, mehnat bilan gullab-yashnagan turmushi ko‘z o‘ngimizda gavdalanaadi. “Mehnat bilan to‘pganing — qand-u asal to‘tganing”, “Pora yegan — ponay yer” degan maqollar ham dono xalqimizning o‘tmish tajribasini ochiq ko‘rsatib beradi.

Dunyoning ko‘p qismiga egalik qilgan Amir Temur yashagan oltin asrda ham halollik, adolat, bironing haqqiga xiyonat qilmaslik tamoyillari davlat boshqaruvining asosini tashkil etgan. Sohibqironning insoniyat taraqqiyoti uchun qilgan eng ulug‘ ishlardan biri jamiyatda ildiz otgan poraxo‘rlilni tomiri bilan sug‘urib tashlaganidir. Uning adolat tug‘i ostida buyuk saltanat sarhadlari shu qadar kengaydiki, ba’zi rivojyatlarga ko‘ra, yetti yoshli bolaning boshiga oltin taboqda to‘la tilla qo‘yib, chegaraning u boshidan bu boshiga yuborilsa, yetib borguncha yigit yoshiga yetadi, ammo tilladan bir dona ham kamaymaydi. Bu rivojvatlar tildan tilga o‘tib, bizzagcha yetib kelgani esa xalq diyonatini, halollikni nechog‘liq qadrlashini ifoda etadi.

Yangi islohotlar davrida davlatni korrupsiyadan xoli hududga aylantirish bo‘yicha qilingan o‘zgarishlar, xususan, har sohada inson omili va qog‘ozbo‘likdan voz kechib, raqamlashtirilgan tizimga o‘tishi,

Natijada raqamlashtirish orqali qog‘ozbozlik kamayib, professor-o‘qituvchilar asosiy vaqtini ko‘proq bilim berish va izlanishga sarflamoqda. Ta’lim sifati va ish unumdorligi sezilarli tarzda orta boshladi. Professor-o‘qituvchilar va talabalarga elektron ta’lim xizmatlari ko‘rsatish amaliyoti takomillashdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish, mamlakat va xalq hayotini farovon qilish, millat kelajagini yorug‘ kunlarga olib chiqish yo‘lidagi islohotlar Farg‘ona davlat universiteti misolida ham samarasini ko‘rsata boshladi. Jumladan, yaqin 3 yilda dunyodagi eng nufuzli oliy ta’lim muassasalari va reyting tashkilotlari bilan xalqaro aloqalari ilgarilab ketdi. Bugunga qadar qator nufuzli xalqaro reyting tashkilotlarida yuqori o‘rinlarni egalladi. Xususan, 2023-yilda Avstraliyaning UniRank reyting platformasida mahalliy miqyosda 23-o‘rinni band etdi. Shu yili Gruziyaning xalqaro universitetlar reyting tashkiloti — Round University Ranking (RUR) reytingida o‘qitish indikatorlari bo‘yicha 883-o‘rinni egalladi. Shuningdek, Buyuk Britaniyaning Times Higher Education (THE) reyting agentligi o‘rnatida 14 ta indikator bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar bilan 1000+ natijani qayd etdi.

Mazkur natijalarning eng salmoqli 2023-yil yakunida Kanadaning Xalqaro yutuqlar tadqiqot markazi (International Achievements Research Center — IARS) reytingida “Yil rektori — 2023” va “Yil universiteti — 2023” nominatsiyasi sohibiga aylanganimiz bo‘ldi. Shuningdek, universitetimiz o‘tgan yili Indoneziyaning UI GreenMetric xalqaro reytingida ilg‘or 500 talikdan joy oldi.

2024-yil natijalariga ko‘ra, Turkiyaning mashhur Higher Education Ranking xalqaro reytingida OTM 65 mamlakatning 303 ta universiteti orasida 3-o‘rinni egalladi. Shu bilan birga, o‘tgan yili xalqaro QS — Asia University Rankings reytingida Osiyo universitetlari orasida 801-850-qatoridan o‘rin oldi. Universitetning zamonaviy borayotgan nufuzi, akademik salohiyati tamirida esa, albatta, adolati, korrupsiyadan xoli milliy ta’lim-tarbiya tizimi natijasi mujassam.

Korrupsiyaga qarshi kurash — umummilliy vazifa, har bir vatanparvarning vijdon ishi ekan, bu jarayondan hech kim chetda turmasligi kerak. Bunda nafaqat biz, ziyolilar jamoasi, balki O‘zbekistondan har bir fuqarosi birgalikda mana shu yaradan jamiyatimizni butunlay xalos qilish yo‘lida g‘ayratli shijoat bilan harakat qilishimiz dardkor. Faqat shundaygina biz yoshlarimiz kutayotgan korrupsiyadan xoli, adolatli va farovon jamiyat qura olamiz.

Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglashimiz zarur: yangi O‘zbekiston hayotida ochiqlik va oshkoralik, demokratiya angliyanish jarayoni davom etar ekan, endi oramizga hech qanday poraxo‘r yoki xiyonatkor sig‘maydi.

Bahodirjon SHERMUHAMMADOV,
pedagogika fanlari doktori, professor

Dolzarb mavzu

CHANGIT MANG,

JARIMA TO‘LAYSIZ!

Mutaxassislar fikricha, chang hajmi qancha kichik bo‘lsa, nafas yo‘llariga shuncha chuqur kirib boradi. O‘pkada turib qoladi va fibrogenlik xususiyatini oshiradi. Demak, atrof-muhit musaffoligini qancha saqlasak, o‘zimiz uchun shuncha foydali bo‘ladi. Shu jihatdan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha choratadbirlar ko‘rilishi o‘z ifodasini topgan. Bugun inson manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan ushbu normalar hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Masalan, so‘nggi yillarda yurtimiz bo‘ylab shaharsozlik ishlari ko‘lami kengaydi. Hududlar infratuzilmasi yaxshilanib, zamonaviy turar joylar qad rostlamoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bugun yurtimiz bo‘yicha 27,4 mingdan ziyod korxona va tashkilot qurilish bilan shug‘ullanmoqda. Ular tomonidan o‘tgan yilning o‘zida 233,8 trillion so‘mlik qurilish ishlari bajarildi. Tarkibi bo‘yicha binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 71,7 foiz, fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 19,3 foiz va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 9 foiz ulushni tashkil etdi. Bu ijobiy holat, albatta.

Ammo qurilish bo‘lar ekan, atrof-muhitga chang va inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi zararli zararlarni tarqalishi tabiiy. Chunki bu jarayonda, ayniqsa, asfalt, beton va boshqa qurilish materiallari ishlatishda chang hosil bo‘ladi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 500 kvadrat metrli ochiq qurilish maydonidan yiliga o‘rtacha 50 tonna chang va qum havoga ko‘tariladi. Bu inson salomatligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi, albatta.

Shu bois, shaharsozlik qoidalariga qurilish maydonida, unga kirib-chiqish yo‘llarida chang va qum zararchalari havoga ko‘tarilishini bartaraf etish bo‘yicha majburiy talablar kiritilib, amaliyotga joriy qilindi. Lekin shu paytgacha qonunchilikda atmosfera havosini muhofaza qilish talablari va shaharsozlik qoidalarini doirasida aynan qurilishda havoga chang ko‘tarilishiga yo‘l qo‘yganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmagan edi. Prezidentimiz joriy yil 3-mart kuni imzolagan “Qurilish maydonlarida chang va qum zararchalarining havoga ko‘tarilishini bartaraf etishga doir majburiy talablar belgilanishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimchalar va o‘zgartirish kiritish haqida”gi qonun bu kabi muammolarning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan.

Ushbu qonunga nega zarurat tug‘ildi, unda qurilish jarayonida chang ko‘tarilishining oldini olish bo‘yicha

qanday yangi normalar aks etgan, degan haqli savollarga izoh berib o‘tsak. Avvalo, mazkur qonun fuqarolar hayoti va sog‘lig‘i uchun qulay atmosfera havosidan foydalanish huquqlarini ta’minlaydi. Ya’ni sizuz bizning toza havodan nafas olishimizga sharoit yaratadi. Tartibsiz chiqariladigan chang va qum zararchalari havoga ko‘tarilishini bartaraf qilishga hissa qo‘shadi.

Endi o‘lchami besh yuz kvadrat metr va undan ortiq qurilish maydonida, unga tutash hududda hamda undan chiqish yo‘llarida chang hamda qum zararchalari havoga ko‘tarilishini bartaraf etishga doir majburiy talablarni buzish yoxud ushbu hududlarda ifloslantiruvchi moddalarning me’yordan ortiq darajada havoga chiqarilishiga yo‘l qo‘yish mansabdor shaxslarga BHMning 10 barobari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilsa, BHMning 50 barobari miqdorida jarima solinadi.

Huquqbuzarliklarni aniqlash esa qat’iy belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonda qurilish maydonida chang-qum zararchalari havoga ko‘tarilishi holati Davlat ekologik nazorati inspeksiyasi mas’ul xodimlari tomonidan yuqori sezuvchanlikka ega maxsus laboratoriya uskunalari va vositalari bilan joyiga chiqqan holda tahlil namunalari asosida o‘rganiladi. Ushbu hujjat bino-inshootlar qurish, rekonstruksiya qilish hamda mukammal ta’irlash davrida atmosfera chang va qum zararchalari tashlanishining oldini olish barobarida quruvchilar mas’uliyatini oshiradi.

Odiljon MAMADALIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

6

2025-yil 13-mart, 51-son

MEZON

YANGI O'ZBEKISTON

Shukuh

Navro'z bayramida

SINFDOSHLAR IBRATI

U mahallalarni obod qilishda qanchalik samara bermoqda?

Qantar og'ib, cho'ponning yelkasiga oftob tegdi. Oppoq qor bilan qoplangan tepaliklarda eruv boshlandi. Yer qizib, tafti samoga ko'tarilmoqda. Allaqachon qo'zilab bo'lgan suruvini boychechak bo'y ko'rsatgan keng qirlarga haydashga shoshilgan qo'ychivon chorvaning yili kelganidan mamnun. Tayog'iga suyangancha barakani chamalab ko'radi.

O'zicha sarhisobidan taskin topadi.

Ko'ngli oftobda erigan qor kabi yumshab, qizigan tosh ustiga bir zum o'tiradi. Onasining ortidan ergashayotgan egiz qo'zichoqlarga qarab dili yayraydi. Qo'yniga solib yurgan, bobosidan qolgan chanqovuzni olib, labiga tekkiyadi.

O'zicha chalmoqqa shaylanadi.

Sozning ovozi bir oz o'xshamayroq chiqadi. O'tgan yilgi ko'klamdan beri qo'liga olmaganidi. Ozgina yodidan ko'tarilibdi. Yasqoq toshga o'rtnashib olib, boshqatdan urinadi.

Biyov-biyov, degan sas yangray boshlaydi. Ohang boshida bir oz pastlab, keyin ko'tariladi. Atrofga o'zgacha kuy taraladi. Bu navodan adirming kun tegish tomonidagi qo'yaning qori erib, endigina bag'riga issiqlik tekkani qoqio't sergak tortgan kabi bosh ko'taradi. Mayin shabbodaning ta'siridanmi yoki chanqovuz ovozigacha hamohangmi, tebranib, raqsqa tushgan bo'ladi. Huv narida biya ortidan ergashib yurgan, hali tug'ilganiga ko'p bo'lmagan saman toychiq bu ohangni ilk bor eshitayotgan bo'lsa kerak, quloqlarini dikkaytirgancha jim qarab qoladi. Balki qulog'iga mayin yoqayotgandir.

Bir-birining pinjiga tiqilib turgan ikki juft toshbulbul ham harakatga tushib qoladi. Mayin navo qaydan kelayotganiga qiziqib, katta tosh ustiga qatorlashib qo'nib oladi. Shu paytga qadar qurib qolgan kaklik ko'zidekkina chashma ham harakatga tushadi. Undan ziloldek suv sizib chiqib, pastlik tomon qo'a boshlaydi. Shoshayotgan jilg'aga qo'shilib, soy tomon quyiladi. Sharqiragan ovoz chiqarib, go'yoki

cho'ponga jo'r bo'ladi. Darakchi qushlar parvoz qilib, qo'shiq aytishga tushadi. Butun borliq uyg'ona boshlaydi. Demak, bahor kirib kelmoqda.

Aslida, ilk ko'klamni chorvadorlar qarshi olib, keyin navbat dehqonlarga o'tadi. Qo'liga ketmon olib ishga kirishgan mirishkorlar ob-havo yaxshi bo'lishidan umidvor bo'lib yerga urug' sochadi. Yil barakali bo'lishini tilab keksalar duoga qo'l ochadi. Nuroniylar qo'liga bir dona bo'lsa-da, nihol olib ekishni boshlab beradi.

Uyg'onish fasli jamiki jonzotni harakatga keltiradi. Dalalarda ish, qizg'in hayot boshlanadi. Qaysidir mahallada hashar uyushtiriladi. Hovlilardagi daraxtlar oqalanib, tagi yumshatiladi. Xotin-qizlar doshqozon o'rnatib, sumalak pishirishni boshlab yuboradi. Qo'liga urchuq olgan momolar ko'klamga ko'rpacha solib, o'timish laparlaridan xirgoyi qilishga kirishadi. Jamalak taqqan qizaloqlar momosi qo'lidagi urchuqning aylanishiga mahliyo bo'ladi. Qo'liga tokqaychi olgan boba nabirasini yetaklagancha bog' oralaydi. Bo'y ko'rsatgan qoqio't, momoqaymoqlarni olib: "Omonlik, omonlik, hech ko'rmaylik yomonlik", deya yetkazganiga shukrona aytadi. Mo'yasfdning harakatiga hayrat-la tikilib, ko'zlari porlab turgan bolakayga boba rivoyatlar aytadi. Bu kabi manzara har bir xonadonda, har bir dalada takror bo'ladi. Xullas, hademay yosharish ayyomi — Navro'z kirib keladi. Yangi kunga yaxshi niyatlar ila hozirlik ko'rish lozim.

Ko'kdala tumaniidagi Chiyal ahli har yilgi Navro'zni o'zgacha kutib oladi. Hudud an'anasiga ko'ra, bahor bayramini o'tkazishni qishloqdagi maktabni qaysidir yili bitirgan sinfdoshlar o'z zimmasiga oladi. Dastlab oqsqoqlar oldidan o'tib, rozilik so'rashadi. Rejalari asosida qilinadigan xayrli tashabbuslari haqida batafsil aytib o'tishadi. Shundan so'ng keyingi yil bayram tashkilotchilari — misol uchun, 1987-yil tug'ilgan sinfdosh yigitlar ekani e'lon qilindi. O'z zimmasiga kattagina mas'uliyatni olgan sinfdoshlar shu kunning



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

ertasigayog' ishga kirishadi. Eng muhimi, ularning o'z niyatlariga ko'ra, qishloqda yaxshigina obodonchilik boshlanadi. Ya'ni keyingi Navro'zga qadar o'z hisoblaridan muayyan mablag' yig'ishib, homiylik hisobidan ko'priki yoki yo'lga asfalt yotqizishadi. O'zlari tahsil olgan maktabga kitob sovg'a qilishadi. O'quv binosini ta'mirlab berishadi.

Joriy yilda ham Chiyalda anchagina katta ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ayni kunlarda qishloq bolalari maktabga qatnashi uchun piyodalar yo'lakchalari barpo etilmoqda. — Chiyalda hozir 12 ta mahalla mavjud, — deydi hudud faoli Allamurod Keldiyev. — Shunday bo'lsa-da, har bir mahallada udum mavjud. Buning natijasida qishloqlarimiz obod maskanga aylanmoqda. Yo'llarimiz yaxshilanib, muammolar bartaraf etilmoqda. Yoshlarning bu xayrli tashabbusi ortidan kambag'al oilalar bandligi ta'minlanib, farovonlikka qadam tashlashiga sharoit yaratilmoqda. Ayniqsa, oliyoghlarda ta'lim olayotgan, imkoniyati

yetmayotgan ayrim talabalarga kontrakt pullarini to'lab berishda katta ko'mak berilmoqda. Bundan tashqari, maktablarimizning ahvoli ancha yaxshilanmoqda. Kutubxonalarimiz kitobga to'lmog'da.

Qishloq oqsqoqlarining aytishicha, sobiq sinfdosh yigitlar har bir mahalla ahlini biriktirib, o'z hisobidan Navro'z saylini tashkil etadi. Bayram oldidan yoshlar o'rtasida voleybol, futbol, milliy kurash, arqon tortish, tosh ko'tarish kabi sport musobaqalari o'tkazilib, g'oliblar munosib taqdirlanib boriladi. Yana bir jihati, sport bellashuvlarida nafaqat yoshlar, balki yoshi kattalarning ishtiroki ham ta'minlanib, tadbirming qiziqarli o'tishiga imkoniyat yaratiladi.

Chiyalda o'ttiz yildan ko'proq vaqt mobaynida shakllangan ushbu ezu an'anani boshqa joyda uchratish mushkul. Agar sarhisob qilnadigan bo'lsa, o'tgan yillar davomida aynan ushbu tashabbus ortidan hududda bir qancha ijobiy ishlar amalga

oshirildi. Masalan, shu paytga qadar qishloqlar o'rtasidagi mavsumda to'lib oqadigan Qumdaryodan bahor paytlarida o'tish mushkul bo'lib kelgan. Ayniqsa, o'quvchilar maktabga qatnashi anchagina qiyinlashib qolgandi. Bu muammoni bartaraf etish uchun aholi "kimdir qilib berar" qabilda ish tutmay, hasharini boshlab yuborgan. Bunda aynan Navro'z tashkilotchilari asosiy homiylik qilishgan. Natijada keyingi besh-olti yilda uch-to'rtta ko'priki barpo etildi. Uzoq yillik tashvish aridi. O'quvchilarning uzog'i yaqin bo'ldi.

— Bu an'ana navbati bilan almashib boraveradi, — deydi Qumdaryo mahallasi raisi O'ktam Soipov. — Bu yil bizda 1984-yilda tug'ilgan sinfdosh yigitlar bayram tadbirlariga bosh bo'lmoqda. Baraka topsin. Hozirga qadar mahallamizning ichki ko'chasi yonidan 3 kilometr piyodalar yo'lga qurib berishdi. Ilgari bolalarimiz maktabga katta asfalt yo'lidan borardi. Mashinalar harakatlanishiga mo'ljallangan yo'lidan yurish ancha xavfli. Ota-onalarning xavotiri ortib, farzandlari uyga qaytgunga qadar ko'chaga termulib o'tirardi. Hozir tekis yo'lakdan bemalol borib kelishmoqda. Shu bilan birga, quyosh nuridan quvvat oladigan ko'cha chiroqlari ham o'rnatib berishdi. Buning evaziga yo'llarimiz charog'on bo'ldi. O'tgan yilgi tashabbuskorlar ko'priki qurib bergandi. Undan avvalgi yilda maktabimizda artezian qudug'i kovlanib, ichimlik suvi bilan ta'minlandi. Aynan Navro'z bayrami bahona har yili yangiliklarga qo'l urilmoqda. Manzilimiz obod maskanga aylanmoqda.

Xayrli tashabbus shu hududda joylashgan "Chuvulloq" mahalla fuqarolar yig'inida ham keng tarqalgan. Mahalla nuroniylarining aytishicha, sinfdosh yigitlar tashabbusi bilan joriy yilda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga katta yordam berilgan. Shu bilan birga, Navro'z o'tkazishni zimmasiga olgan yigitlar o'zlari tahsil olgan maktab kutubxonasiga badiiy adabiyotlar sovg'a qilishgan. O'tgan yillar davomida bu kabi ishlarning sanab adog'iga yetib bo'lmaydi.

— Azaldan yangilanish ayyomi o'zgacha kutib olingan, — deydi "To'qmor" MFY raisi Sherali Mirzayev. — Navro'z xalqimiz uchun eng e'zozli bayramlardan biri. Bunga doim alohida tayyorgarlik ko'rilgan. Ota-bobalarimiz tozalikka e'tiborni, avvalo, hovlisidan boshlagan. Shundan so'ng ko'chalar ozoda qilingan. Hasharlar o'tkazilib, joylarga daraxtlar o'tqazilgan. Bemorlar holidan xabardor bo'lishgan. Keksalarining duosi olingan. Bu udum bugun ham davom etib kelayotgani quvonarli. Adashmasam, bizda ilk bor 1996-yilda sinfdosh yigitlar tashabbusi bilan Navro'z o'tkazish boshlangandi. Shundan beri har yili shu tariqa o'tkazib kelinadi. Hozirgacha bu tashabbus ortidan qishloq'imizga yangi sport maydonchasi barpo etildi. Ichki yo'limizning 1 kilometr qismi asfalt qilindi. Ikki kilometr yo'lga shag'al yotqizildi. Bundan tashqari, 68-umumta'lim maktabimizga quduq qazdirildi. Har yili yuzdan ziyod daraxt ko'chati ekib berishadi.

Boshqa joylardagidan farqli o'laroq, bu manzilda "Navro'z solnomasi" kitobi ham joriy etilgan. Mazkur kitobga 1996-yildan beri sinfdosh yigitlar tomonidan har yili Navro'z arafasida qilingan ishlar qayd qilib boriladi. Kitobni varaqlarkannmiz, hech bir sahifasida bo'sh joy yo'qligiga guvoh bo'ldik. Qaydnomalar keyingi yillarda yanada kengayganini ko'rish mumkin. Ushbu solnomada yaxshi nom qoldirish mahalla yoshlari uchun katta sharaf.

Aytilsharicha, keyingi yillarda Chiyal an'anasi vo'ha bo'lyab keng tarqala boshlagan. Buning evaziga Navro'z bayrami tantanalari joylarda yanada qadriyatlariga boy, milliy urf-odatlar asosida o'tilmoqda. Bu esa nafaqat hududlar obodligiga, balki ko'ngillar nurafshonligiga ham sabab bo'lmoqda. Bu kabi xayrli tashabbuslar yanada quloq yozsa, bahor ayyomi har bir manzilda yanada go'zal bo'lishi shubhasiz.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

YOG'OCHNI "GAPIRTIRADIGAN" ODAM

O'ZBEKISTON XALQ USTASI MUHAMMADALI YUNUSOV PORTRETIGA CHIZGILAR

Egnida oq yaktak, beliga belbog' bog'lagan usta tong havosidan to'yib nafas olib, ustaxona tomon odimladi. Bir muddat atrofni ko'zdan kechirdi, xomashyolarga nazar soldi. Oddiy yog'ochlarga ajib manzara, naqshlar solish bilan andarmon bo'lib izlanayotgan shogirdlari ishiga e'tibor berib, naqshlar ustiga mehr bilan qo'l yugurtirdi, yoshlar ishidan ko'ngli to'ldi. G'ayrati jo'sh urdi, qo'liga iskana va bolg'achani olib, yog'och ustiga engashgancha ishga kirishdi...

Hunardan unar

Taniqli yog'och o'ymakor usta Muhammadali Yunusov faoliyatini shu tarzda boshlashga odatlangan. Quloq yetmas ustunlarga turfa naqsh solish hayotining mazmuniga aylanganiga yarim asrdan oshdi. Uning qalb qo'ri, ko'z nuri, ijodkorlik qobiliyati bilan ishlangan turfa yog'och buyumlar, ayvon va ustunlar yillar davomida elga manzur bo'lib kelmoqda.

Mahobatli ustunlar, naqshinkor ayvonlar nafaqat mamlakatimizda, balki xorijda ham ma'lum va mashhur. Usta yasagan amaliy san'at namunalari hayratni oshiradi. Mahobat bilan ishlangan har bir naqshning o'z jilosi, ohanrabosi bor. Qalbgacha ezigulik, yuraklarga hayrat urug'ini sochadi.

Muhammadali aka ellik yildan buyon yog'och o'ymakorlik bilan shug'ullanib, elda hurmat-izzat topdi. "O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi" faxriy unvoni, "El-yurt hurmati" ordeniga munosib ko'rildi.

— Naqqoshlik bizga otameros, — deydi usta. — Men beshinchi avlod vakiliman. Qo'limga iskana olganimda nari borsa, 6-7 yoshli bola edim. Har bir hududning o'ziga xos

yog'och o'ymakorlik uslubi, naqsh solish an'anasi bor. Qo'qon yog'och o'ymakorlik maktabida nozik va bejirim naqshlarga alohida o'rtn ajratilgan. Muhimi, hammasi ijod va izlanish mahsul. Harakat qilgan odam mehnatidan qadr topmoqda. Bugungidek qulay sharoitlar yo'q edi. Tor hovlida bir amallab ishlaganmiz. Hunar o'rganib, otm ko'lmadik. Ayni kunda ikki mingdan ortiq shogirdim bor. Ular milliy yog'och o'ymakorlik san'atini rivojlantirish, unutilgan an'analarini tiklash yo'lida izlanish olib boryapti. Yog'och o'ymakorligi bir qaraganda, oddiy ish bo'lib ko'rinishi mumkin, ammo u juda murakkab san'at turi. Bu ishga qo'l urganlar nozik didli, sabr-bardoshli, bilim va izlanishdan qochmaydigan bo'lishi shart. Adabiyot, musiqa, tarix, kimyo, matematikadan xabardor bo'lmay turib, ushbu hunarni egallab bo'lmaydi.

Muhammadali aka bobomeros hunarni rivojlantirib, taraqqiy etishiga hissa qo'shib kelayotgan fidoyilardan. Furqat tumani markazida "Usta Yusufjon naqqosh" oilaviy korxonasini ochib, "Usta-shogird" maktabida yuzdan ortiq yoshga yog'och o'ymakorligini



o'rgatib kelmoqda. Bu yerda daradgorlik uskunalar va yog'och mahsulotlar muzeyi ham tashkil etilgan.

Prezidentimiz 2022-yil may oyida Farg'ona viloyatiga tashrifi doirasida "Usta Yusufjon naqqosh" oilaviy korxonasida bo'lib, usta Muhammadali Yunusov bilan suhbatlashgandi. Mazkur oilaviy korxona yonida maktab tashkil etish, unda hunar bilan birga matematika, geometriya, fizika, kimyo kabi fanlarni chuqurlashtirib o'qitish muhimligini ta'kidlagandi.

— Davlatimiz rahbari o'shanda otabobolarimizdan meros hunarni asrab-avaylab, yosh avlodga yetkazayotganini, ularni ishli qilayotganini uchun mamnun ekanini bildirgan edi, — deydi usta. — Shunday hunarmandchilik turlarini yanada ommalashtirish, bu ham

madaniyat, ham ma'rifat, ham iqtisodiyot ekani haqida suhbatlashgandik.

Ustaning ish namunalari 2019-yil sentabrda Qo'qon shahrida o'tkazilgan xalqaro hunarmandlar festivalida "Eng yaxshi hunarmand" nominatsiyasi bo'yicha g'oliblikka loyiq ko'rildi. O'shanda barchaning ko'z o'ngida Qo'qon yog'och o'ymakorligi va duradgorlik an'analari bor bo'y-basti bilan ko'rsatib berildi. Usta festivalning ochilish tadbiridagi konsert dasturi davomida shogirdlari bilan milliy uslubdagi to'rt tarafi ochiq ravonchi hech qanday yelim, mixsiz tiklab, ishtirokchilar olqishiga sazovor bo'lgan edi.

— Bugun milliy uslubdagi so'ri, xontaxta, naqshinkor ayvonlarga talab yuqori, — deydi usta. — Ilgari yong'och, chinor, qayrag'och, tut, tol daraxtidan mahsulot tayyorlagan bo'lsak, endi qayin, pavlovniya yog'ochiga ishlav berib, bejirim va ko'rkam buyumlar tayyorlashga harakat qilyapmiz. Yog'ochga naqsh solishda zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan ham foydalansa bo'ladi. Lekin qo'l mehnati orqali tayyorlangan jihoz va buyumlarning qadri boshqacha. Yog'ochga barmoqlaringiz orqali o'tgan mehr boshqacha jilo beradi, ko'rganning ko'zi quvnaydi.

Usta yurtimizdagi ko'plab majmualarga ko'rk bag'ishlagan, nufuzli, mahobatli binolarni barpo etish jarayonida o'ymakorlik ishlari bilan qadimiy milliy hunarmandchilik an'analarini tiklashga hissa qo'shgan. Poytaxtimizdagi Hazrati Imom majmuasini barpo etishda 8 metrli ustunlarni tayyorlash hamda kirish qismidagi ayvonlarning naqshini tushurishda bosh usta sifatida ishladi.



"Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyining ustunlarini ham naqsh bilan bezadi. Milliy bog'dagi "Xalq amaliy san'ati" galereyasining aylana ayvon qismi, Samarqanddagi Imom Buxoriy majmuasi ayvonlari qurilishi, Doniyol payg'ambar maqbarasida 8 qirra, 8 ustunli milliy arkl ayvon hamda ko'plab tuman va shaharlardagi yog'och o'ymakorligi ishlari ham aynan Muhammadali Yunusovga tegishli.

Hunarmandchilikda Samarqand, Xorazm, Toshkent va Qo'qon maktabi bor edi. Uslubi jihatidan bu maktablarning hunarmandlik ishlari ajralib turadi. Bugun, hech shubhasiz, Furqat tumani maktabi ham vujudga keldi. Barcha soha va tarmoqlar qatori hunarmandchilik yo'nalishidagi yangilanishlar zamirida ham qadriyatlarimizni tiklash, yoshlarni hunarli qilish va ish bilan ta'minlash kabi vazifalar ustuvor.

Korxona rahbari Muhammadali Yunusov milliy yog'och o'ymakorligi maktabining munosib davomchisi. Uning ijodida "pargori", "sharafa", "muqarnas" va "islamiy" uslublar asosiy o'rinda. Naqshinkor ustunlar, kursi, lavh,

quticha va boshqa buyumlar hamisha xaridorgir. Ustaning shogirdi ko'p. Shu bois, keng sharoit yaratish maqsadida korxona uchun yangi bino qurib birkazilgan.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining korxonaga tashrifi davomida berilgan imkoniyatlardan samarali foydalangan tadbirkor hunarmandchilik maktabi faoliyatini tashkil etishi natijasida 100 dan ziyod yosh uchun doimiy ish o'rnlari ochildigan. Erishilgan natija va olingan daromad evaziga tumandagi ehtiyojmand oilalarga ko'mak berish, yosh hunarmandlarni yaqindan qo'llab-quvvatlashga ham tadbirkor munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Ustaxonada hayot qaynaydi. Qo'liga iskana va bolg'a tutganlarning yoshi, bo'y-basti, qarashi turlicha. Ammo maqsadi va istagi bitta — oddiy yog'ochdan go'zal san'at asari tayyorlash.

Nodir MAHMUDOV,
Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbirlari

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalari tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilotchi javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 346.
37346 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 07:20 Topshirildi — 08:00

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05